

NDPI Tarix fakulteti tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi 4-“V” guruh talabasi Muhammadiyeva Zilola Akademik Bo'riboy Axmedovning “O'zbek ulusi” asari – tarixiy manba sifatida. mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga.

T A Q R I Z

NDPI Tarix fakultetuti Tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabasi Muhammadiyeva Zilola Akademik Bo'riboy Axmedovning “O'zbek ulusi” asari – tarixiy manba sifatida” bitiruv malakaviy ishi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Ko'chmanchi o'zbeklar haqida, aniqrog'i ularning temuriylar bilan XIV va XV asrlardagi o'zaro aloqalari to'g'risida Abdurazzoq Samarqandiyning (1413-1482) qimmatli, ammo shu paytgacha tadqiqotchilar tomonidan kam o'rganilgan “Matla' us-sa'dayn” asarida anchagina ma'lumotlar mavjud. Tilining jimjimadorligi va bayonning an'anaviyligiga qaramy, Abdurazzoq Samarqandiyning asari ma'lum darajada haqgo'y bo'lib, Movarounnahr va Xurosonning XV asr tarixini o'rganish bo'yicha bebaho tarixiy manbadir. Bu asar mutolaasi davomida o'quvchi tashqi va ichki sabablar ta'sirlarida davlatlari inqirozga yuz o'girayotgan paytdagi SHohruh va Abusa'idlarning davrlarini ko'z o'ngiga keltiradi. Zolagonlar o'zaro kurashlarining tasviri, qishloq va shahar aholisining ahvoli, oz bo'lsa-da feodal institutlar va yer egaligi , soliqlar, temuriylarning ko'chmanchi o'zbeklar bilan o'zaro aloqalari butun kitobda o'z aksini topgan va faqat diqqat bilan o'qilgandagina kerakli ma'lumotlarni saralab olish mumkin bo'ladi. Abdurazzoq Samarqandiyning asaridan olingan ma'lumotlar bu kitobga qisman asos bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi savoli ko'chmanchi o'zbeklar davlati Abulxayrxon davrida. Ijtimoiy, siyosiy holati ustida ishlash. Tarixiy adabiyot.

Adabiy asarlardan foydalanish deb nomlanib unda tarixiy manbalarni o'rganish va ularda qadimgi davr tarixi bo'yicha muhum manba va adabiyotlarni yoritib bergan.

Bitiruv malakaviy ishi tushuntirish qism, 2 bob, 6 reja va xulosa qismidan iborat bo'lib, yetarli adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan.

Xulosa qilib aytganda, talaba Muhammadiyeva Zilola Akademik Bo'riboy Axmedovning "O'zbek ulusi" asari – tarixiy manba sifatida" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi tegishli Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining talablariga mos ravishda tayyorlangan bo'lib, himoyaga tavsiya yetaman.

Taqrizchi

katta o'qituvchi D. Murtazayev

NDPI Tarix fakulteti tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi 4-“V” guruh talabasi Muhammadiyeva Zilola Akademik Bo'riboy Axmedovning “O'zbek ulusi” asari – tarixiy manba sifatida. mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga.

T A Q R I Z

NDPI Tarix fakultetuti Tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishi talabasi Muhammadiyeva Zilola Akademik Bo'riboy Axmedovning “O'zbek ulusi” asari – tarixiy manba sifatida. Bitiruv malakaviy ishi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

XV asrdagi o'zbeklar davlatining ichki tuzumi yaxshi o'rganilmagan. SHu davrdagi qozoqlarning axvoli haqida ham shuni aytish mumkin. 1440-50 yillarda turk-mo'g'ul urug'larining bir qismi Abulxayrxondan ajralib chiqdilar va Xorazm, CHu vohasi, yettisuvga ko'chib kelib joylashdilar. SHarq tillarida yozilgan manbalarda mana shu turk-mo'g'ul urug'lari o'zbek-qozoqlar yoki qozoqlar deb ataladi. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining xududlari arxeologik jihatdan ham yetarli o'rganilmagan. SHu davlat xududlari ozmi-ko'pmi tilga olingan yozma manbalar ham bizgacha juda kam yetib kelgan. Bu muammo to'la va uzil-kesil xal etish kelgusidagi O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining o'rta asrlardagi tarixi bilan shug'ullanuvchi qadimshunoslar (arxeologlar), tarixchilar, etnograf-elshunoslarning vazifasi bo'lib qolsa kerak.

Xullas, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari tarixining mana shu davri xali ochilmagan ko'riqligicha qolmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi savoli ko'chmanchi o'zbeklar davlati Abulxayrxon davrida. Ijtimoiy, siyosiy holati ustida ishlash. Tarixiy adabiyot. Adabiy asarlardan foydalanish deb nomlanib unda tarixiy manbalarni o'rganish va ularda qadimgi davr tarixi bo'yicha muhim manba va adabiyotlarni yoritib bergan.

Bitiruv malakaviy ishi tushuntirish qism, 2 bob, 6 reja va xulosa qismidan iborat bo'lib, yetarli adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan.

Xulosa qilib aytganda, talaba Muhammadiyeva Zilola Akademik Bo'riboy Axmedovning "O'zbek ulusi" asari – tarixiy manba sifatida. mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi tegishli Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining talablariga mos ravishda tayyorlangan bo'lib, himoyaga tavsiya yetaman.

Karmana tumani 23-umumta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi

M. YAvqochov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

**AKADEMIK BO'RIBOY AXMEDOVNING “O'ZBEK ULUSI”
ASARI – TARIXIY MANBA SIFATIDA.**

Tarix fakulteti to'rtinchi bosqich bakalavri
Muhammadiyeva Zilolaning “O'zbekiston
tarixi” fanidan 2014-2015 o'quv yilida
bajargan bitiruv Malakaviy ishi.

Ilmiy rahbar M.Oltinov, t.f.d., professor.

Navoiy sh. – 2015 yil.

AKADEMIK BO'RIBOY AXMEDOVNING "O'ZBEK ULUSI"

ASARI – TARIXIY MANBA SIFATIDA.

Kirish.

**I-bob. Ko'chmanchi o'zbeklar davlati Abulxayorxon davrida.
Ijtimoiy, siyosiy holati.**

- 1.1. O'zbeklarning XIII-XIV asrlardagi ijtimoiy, siyosiy hayoti.
- 1.2. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining tashkil topishi.
- 1.3. Sirdaryo havzasi o'zbeklar davlati ijtimoiy, siyosiy hayot.

II-bob. SHaybon o'zbeklarining temuriylar bilan o'zaro aloqalari.

- 2.1. Ko'chmanchi o'zbeklarning davlat boshqaruv tizimi.
- 2.2. SHaybon o'zbeklarining Movarounnahrda kirib kelishlari.
- 2.3. XV asr oxirida Movarounnahrda siyosiy vaziyat.

Xulosa.

.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Navoiy davlat pedagogika instituti, Tarix fakultetining to'rtinchi bosqich bakalavri
Muhammadiyeva Zilolaning 2014-2015 o'quv yilida **“Akademik Bo'riboy
Ahmedovning “O'zbek ulusi” asari – tarixiy manba sifatida”** mavzuda
bajargan Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy

X U L O S A

XV asrda fors tilida mashhur tarixchilar Nizomiddin SHomiy, Muiniddin Natanziy, SHarafuddin Ali YAzdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond kabi ko'plab olimlarning asarlarida “o'zbek” nomi bilan atalgan ko'psonli qabila va urug'larni birlashtirgan ko'chmanchi o'zbeklar davlati Dashti qipchoqda shakllandi va temuriylar davlatiga xavf sola boshladi. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayorxon (1428-1468) bo'lib, u temuriylar saltanatiga barham bergan Muhammad SHayboniyxonning (1450-1510) bobosi edi. XV asrning o'rtalariga kelib o'zbeklar davlati hozirgi Qozog'iston, Sirdaryo bo'ylarini o'z ichiga olgan edi. B.Ahmedovning “O'zbek ulusi” asari Abulxayorxon davlatiningsiyosiy tarixi yoritilgan. Akademik Bo'riboy Axmedov yirik tarixchi olim, qadimgi qo'lyozmalarning bilimdoni sifatida yozma manbalar, arxeologiya, etnografiya ma'lumotlari asosida Oltin O'rdaning sharqiy qismida ko'chmanchi o'zbeklar davlati tarkib topishi, uning siyosiy ahvoli, o'zbeklar davlatining rivoji, temuriylar davlati bilan munosabati kabi dolzarb ilmiy masalalar to'g'risida mushohada yuritilgan.

Masalaga shu ilmiy xulosalar nuqtai-nazaridan yondoshsak tadqiqotchi Muhammadiyeva Zilolaning “Akademik Bo'riboy Ahmedovning “O'zbek ulusi” asari – tarixiy manba sifatida” mavzuda bajargan bitiruv malakaviy ishi o'ta dolzarb, muhim ilmiy, ma'naviy, ma'rifiy ahamiyatga ega. CHunki o'zbeklarning etnogenezi masalasi hamon fanda o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Bu masala atrofida turlicha qarashlar mavjud. Bu fikr Prezident I.Karimovning

“Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” asarida alohida ta’kidlangan, tarixchi olimlar oldiga ko’plab savollar qo’yilgan.

Tadqiqotchi Muhammadiyeva Zilola “Akademik Bo’riboy Ahmedovning “O’zbek ulusi” asari – tarixiy manba sifatida” mavzusini ilmiy yoritishning ham qulay yo’lini tanlagan. Mazkur Bitiruv malakaviy ish: kirish, ikki bob, olti bo’lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar qismlaridan iborat. Uning “Ko’chmanchi o’zbeklar davlati Abulxayrxon davrida” deb nomlangan bobida ko’chmanchi o’zbeklarning XIII-XIV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, ular davlatining tashkil topishi, Sirdaryo havzasi o’zbeklari, ularning turmush tarzi, mehnat faoliyati kabi masalalar, ishning “SHaybon o’zbeklarining Temuriylar bilan o’zaro aloqalari” deb nomlangan . Ikkinchi bobida ko’chmanchi o’zbeklarning davlat boshqaruv tizimi, shayboniy o’zbeklarning Movarounnahrda kirib kelishlari, XV asr oxirlarida Movarounnahrda siyosiy vaziyat kbi o’ta dolzarb masalalar yoritilgan.

Muhammadiyeva Zilolaning 2014-2015 o’quv yilida “Akademik Bo’riboy Ahmedovning “O’zbek ulusi” asari – tarixiy manba sifatida” mavzuda Bitiruv malakaviy ishi mustaqil bajarilgan, tugallangan, muhim ma’naviy, mavkuraviy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oliy ta’lim vazirligining diplom ishlarga qo’ygan talablariga javob beradi. SHu munasabat mazkur bitiruv malakaviy ishni ochiq himoyaga tavsiya qilaman. Ishning muallifi ham shunday ijobiy xulosaga munosib.

M.Oltinov

tarix fanlari doktori, professor.

2015 yil 1-iyun.

K I R I S H

Oltin O'rda davlati va temuriylar saltanatida feodal boshboshdoqliklar, o'zaro nizolar, qirg'in-barot janglar avj olishi oqibatida XV asrning 20-yillarida Dashti Qipchoqning SHarqiy xududlarida ko'chmanchi o'zbeklar davlati tarkib topdi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismi Volga bo'ylaridan to Sirdaryo shimoligacha bo'lgan xududlarni o'z ichiga olar edi. Oltin O'rdaning Jo'chi va SHaybon uluslari o'ramida istiqomat qiluvchi turk va turk-mo'g'ul qabilalari XV asr fors tilida bitilgan manbalarda (Nizomuddin SHomiy, Muiniddin Natanziy, SHarafuddin YAli YAzdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va boshqalarning asarlarida) "o'zbek" degan umumiy nom bilan atalganlar. Ko'chmanchi o'zbeklar deganda biz xuddi shu urug' va qabilalarni ko'zda tutamiz. Bu davlat 40 yildan sal ziyodroq vaqt hukm surgan bo'lsada, ammo O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining keyingi taqdirilariga katta ta'sir ko'rsatdilar. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining asoschisi Abulxayrxon (1428-1468) bo'lib, u temuriylar saltanatiga barham bergan Muhammad SHayboniyxon (1450-1510)ning bobosi edi. XV asr o'rtalariga kelib o'zbeklar davlati hozirgi Qozog'iston va janubi-g'arbiy Sibiriylarning juda katta xududlarini o'z ichiga olgan edi. Bu davlatning qanday tarkib topgani ravnaqi va inqirozi, XV asrda shu xududlarda ko'chmanchilik bilan tirikchilik o'tkazgan turk, turk-mo'g'ul qabila va urug'larining ijtimoiy-siyosiy axvoli hozirgacha tarix faniga unchalik ma'lum emas. XV asrdagi o'zbeklar davlatining ichki tuzumi yaxshi o'rganilmagan. SHu davrdagi qozoqlarning axvoli haqida ham shuni aytish mumkin. 1440-50 yillarda turk-mo'g'ul urug'larining bir qismi Abulxayrxondan ajralib chiqdilar va Xorazm, CHu vohasi, yettisuvga ko'chib kelib joylashdilar. SHarq tillarida yozilgan manbalarda mana shu turk-mo'g'ul urug'lari o'zbek-qozoqlar yoki qozoqlar deb ataladi. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining xududlari arxeologik jihatdan ham yetarli o'rganilmagan. SHu davlat xududlari ozmi-ko'pmi tilga olingan yozma manbalar ham bizgacha

juda kam yetib kelgan. Xullas, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari tarixining mana shu davri xali ochilmagan ko'riqligicha qolmoqda. Bu muammo to'la va uzil-kesil xal etish kelgusidagi O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining o'rta asrlardagi tarixi bilan shug'ullanuvchi qadimshunoslar (arxeologlar), tarixchilar, etnograf-elshunoslarning vazifasi bo'lib qolsa kerak. eng muhimi hali bu davrga va shu mavzuga oid yangi arxeologik, etnografik va yozma manbalar topilishi muammoning uzil-kesil hal etilishiga yordam beradi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining XV asrdagi tarixiga doir arxeologik va tarixiy asrlardan ham unumli foydalandik.

Ushbu kitobda asosan Abulxayrxon davlatining siyosiy tarixi yoritiladi. Ushbu satrlar muallifi o'ziga ma'lum bo'lgan yozma manbalar, sayyohlarning xotiralari, arxeologiya va etnografiya ma'lumotlari asosida Oltin O'rdaning sharqiy qismida ko'chmanchi o'zbeklar davlati tarkib topishi arafasidagi siyosiy ahqolni mazkur davlatning keyingi rivoji, shuningdek ko'chmanchi o'zbeklarning temuriylar, qisman Mo'g'iliston va qalmoqlar bilan munosabatlarining ayrim jihatlarini yoritishga intiladi.

“O'zbek ulusi” kitobining yuzaga chiqishiga qimmatli yordam bergan ustozim I.P.Petrushevskiyga, asardagi ayrim masalalar yuzasidan maslahat bergan Sankt-Peterburg dorilfununi SHarq fakulteti dotsenti L.V. Stroyevaga, shuningdek, yirik mutaxassis olimlar YA.G'.G'ulomovga, M.A.Saloxiddinovaga, R.G'.Muqminovaga qimmatli maslahatlari va mulohazalari uchun samimiy tashakkur aytaman.

SHuningdek, kamina Sankt-Peterburg dorilfununini SHarq fakulteti Osiyo xalqlari instituti Sankt-Peterburg bo'limi O'zbekiston FA SHurqshunoslik instituti, Saltikov-SHchedrin nomidagi sankt-Peterburg davlat kutubxonasi jamoalariga qo'lyozmalar fondlaridan bimalol foydalanishga imkon berganlari uchun minnatdorchilik bildiradi. Kitobdagi jug'rofiy atamalar yuzasidan foydali maslahatlar bergan marhum hamidulla

Xasanovdan, tarixiy xaritalarni tuzatishda qatnashgan Naim Norqulovdan, kitob noshiri Asror Samaddan minnatdorman.

Qo'lingizdagi kitob ko'chmanchi o'zbeklar hayoti va davlati tarixini o'rganish sohasida ilk qadamlardan biridir.

Mazkur kitob rus tilida Moskvada bosilib chiqqaniga chorak asrdan ziyodroq vaqt o'tdi. Bu borada kitob yuzasidan matbuot sahifalarida bir qator taniqli olimlarning fikr-mulohazalari e'lon qilindi. Men shu fikr asosida kitob qayta ko'rib, uni birmuncha to'ldirdim.

Kitobning o'zbekcha nashrini tayyorlashda yordamlashgan SHarq tarixi va adabiyoti ixlosmandi Urfon Otajonga ham minnatdorchilik izhor qilaman.

I-BOB. KO'CHMANCHI O'ZBEKLAR DAVLATI ABULXAYORXON DAVRIDA. IJTIMOIIY, SIYOSIIY HOLATI.

1.1. O'zbeklarning XIII-XIV asrlardagi ijtimoiy, siyosiy hayoti.

XV asrda o'zbeklar bilan temuriylarning munosabatlari va Abulxayrxonning yuksalishi haqidagi ba'zi umumiy ma'lumotlar H.Vamberining keng ko'lamdagi "Buxoro tarixi" asarida mujassam bo'lgan.biz durust o'rganilmagan Oq O'rda va SHayboniy ulusining siyosiy tarixi hamda XV asrdagi Dashti Qipchoq sharqiy qismining ijtimoiy iqtisodiy tarixiga imkon boricha to'xtalib o'tamiz. Oxirgi muammoni yoritish

qo'lyozma manbalarining nihoyatda ozligi va tarixshunoslikda ko'chmanchilarning jamoalaridagi patriarxal-feodal munosabatlar bilan bog'liq ba'zi nazariy masalalar o'rganilmaganligi sababli ancha mushkulot tug'diradi. O'rta Osiyo va Qozog'istonning ko'chmanchi xalqlarida mavjud bo'lgan patriarxal-feodal munosabatlar masalasi hali ya'shi yoritilmagani uchun ham vaqti-vaqti bilan jo'shqin tortishuvlar va baxslar bo'lib turadi. Bu masala 1933 yil iyunida IGAIMKning majlisida, 1954 yili esa Toshkentda o'tgan tarixchilar ilmiy anjumanida muhokama qilingan edi. Bu anjumanlarda ba'zi muhim masalalar hal bo'ldi, ammo ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlardagi patriarxal-feodal munosabatlar muamosi bo'yicha turli fikrlar bildirilib, olimlar muayyan bir fikrga kelolmadilar. Aytib o'tish kerakki, Toshkent anjumanidan keyin ilmiy majallalarning sahifalarida munozaralar tashkil etildi, ularda mutaxassis olimlar o'zlarining fikrlarini bildirdilar.

Kitobning uchinchi bobida biz XV asrda ko'chmanchi o'zbeklardagi patriarxal –feodal munosabatlar haqida dastlabki mulohazalarimizni aytib o'tamiz. Ular XV-XVI asrlardagi Dashti Qipchoq ko'chmanchi aholisining turmushidan xabardor bo'lgan sayyohlarning axboroti, qadimshunoslar (arxeologlar) izlanishlari natijalari va asl manbalarga asoslanib bildirilgan.

Endi, ko'chmanchi o'zbeklarning o'zlari aslida kim bo'lganliklari, etnik tarkibi qanday ekanligi masalasiga qisqacha to'xtalib o'taylik.

O'zbeklarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud ba'zi olimlar ko'chmanchi o'zbeklarning kelib chiqishi Oltin O'rda xoni O'zbekning (1312-1342) nomi bilan bog'laydilar. N.A.Aristonning fikricha, O'zbekxongacha o'zbek nomi tarixda uchramaydi, shuning uchun ham bu nom shu podshoning nomidan bolangan, deyish mumkin. A.YAkubovskiy "o'zbek" iborasining paydo bo'lishini "o'zbeklar", "o'zbeki", "o'zbekiylar" so'zlari bilan bog'laydi va o'zbeklar o'z nomlarini Oltin O'rda xoni O'zbek

nomidan olganlar, degan fikrni bildiradi. I.P.Ivanov ham shunday nuqtai nazarni to'g'ri deb biladi. "O'zbek" so'zining paydo bo'lishi, - yozadi u, - Oltin O'rda xoni nomi bilan bog'liq bo'lsa kerak". CHet ellik tarixchilardan M.A.CHaplichka va Xilda Xukkemlar ham o'zbeklarning kelib chiqishini O'zbekxon nomi bilan bog'laydilar. O'z paytida bunday fikrlarga V.V.Grigorev qarshi chiqqan edi. A.A.Semyonov ham bu fikrning asossiz ekanligini ko'rsatib o'tgan. Uning aytishicha, "o'zbek" iborasi Oq O'rdada paydo bo'lgach, Eron, O'rta Osiyo tarixchilari tomonidan XIV-XV asrlarda Oq O'rdadagi turk-mo'g'ul qabilalari, nomiga qo'shilib yozilgan, O'zbekxon sa Ko'k O'rda, ya'ni Oltin O'rdaning podshosi bo'lib, keyinchalik "o'zbeklar" deb atalgan qabilalar unga buysunmaganlar. Biz A.A.Semyonov haq bo'lsa kerak, deb o'ylaymiz.

H.Vamberi, X.Xovors va M.P.Pelliolarning fikricha, Dashti Qipchoqning turk-mo'g'ul qabilalari bu nomlarni o'zlarining erkinliklari sababli olganlar. H.Vamberida quyidagi qiziq ma'lumot mavjud: "O'zbek" so'zining tub ma'nosi – "o'z o'ziga bek,xo'jayin, mustaqil". Ajabo, bu so'z qadimgi mojarlarda (vengrlarda) ham martaba, unvon sifatida uchraydi va shu ma'noda 1450 yilga mansub hujjatlarda qayd etilgan.

"O'zbek"so'zi XIII-XIV asrlarda, Juvayniy va Rashididdinlarning asarlaridan ham ma'lum edi. Bu so'z, Elxon Oboqa (1265-1282) zamonida Eronda yashagan Puri Bahoning (Tojiddin ibn Bahouddin dostonida ham uchraydi. "Tarixi guzida" ning Zayniddin Qazqiniy tomonidan yozilgan davomida "o'zbekiyon" ("o'zbekchilar"), "mamlakati o'zbek" va "ulusi o'zbek" so'zlarini uchratamiz. Bu yerda so'z Oq O'rda ko'chmanchilari emas, O'zbekxon va uning davlati haqidadir.

SHundan keyin, to XIV asrning 60-yillarigacha "o'zbek" so'zi manbalarda uchramaydi. XIV asrda yashab ijod etgan arab muarrixlari: Nosiruddin ibn Furat (1361-1404), al-Asadiy (1377-1447), al-Ayniylar

(1361-1451) O'zbekxon va undan keyingi Oltin O'rdada hukmronlik qilgan xonlarni "shimol dashtlarining podshohlari", "dasht sultonlari", "dasht mamlakatlarining podshohlari" va "qipchoqlarning podshohlari" deb ataganlar. Bu yerda shuni aytish kerakki, boshqa bir arab tarixchisi al-Kalkoshondiy (1418 yilda vafot etgan) To'xtamishni o'zbeklar podshosi deydi. Nizomuddin SHomiy (XIV asr oxiri, XV asr) o'z risolasida To'xtamish o'g'lonning Dashti Qipchoqdan Samarqandga kelgani tasvirlangan o'rinda bunday deb yozadi: "U (Temur) To'xtamishga O'tror va Savron viloyatlarini inoyat qildi va uni o'sha yerlarga yubordi. Bir qancha vaqt o'tgandan keyin o'zbek podshosi O'rusxonning o'g'li Qutlug' Buqo qo'shin bilan kelib To'xtamish o'g'lon bilan jang qildi".

Ma'lumki, XIV asrning 80-yillari oxirlarida, bundan avvalroq Oq O'rdaning xoni bo'lgan To'xtamish Temurning faol yordami bilan Movarounnahrning shimoliy tomonlarini talon-taroj qilib turardi. 1389 yili Temur unga qarshi qo'shin surdi. Temur qo'shini Sarig' o'zan degan yerga yetib kelganida, "no'yonlar va amirlar yig'ilishib, " agar biz avval Anqo To'ra ustiga yurish qilib u gazandani yanchib tashlasak, so'ngra o'zbeklar diyoriga ("Diyori o'zbek") o'tsak ma'qulroq bo'lardi", deb (Temurga) arz qildilar. Temur ushbu rejaga rozi bo'lib, Bo'riboshi orqali Anqo To'raga qarshi yurish qildi. Abdurazzoq Samarqandiy Temurning Anqo To'raga qarshi yurishini batafsil bayon qiladi, darvoqe' asarda bunday deyiladi: "hijriy 792 yilning (milodiy 1390) o'zida Temur Mo'g'ulistonga qarab yurdi va yo'lda uchragan asirlar unga Anqo To'raning Mo'g'ulistondan qochib ketib o'zbek sahrolarida yashiringanligini aytadilar. Temur askarlari qochoqlarni uch kungacha o'zbek dashtida izlab yurdilar va nihoyat, to'rtinchi kuni qorovullar yog'iyning shu yerda, yaqin joyda ekanligi haqidagi xabarni yetkazishdi. O'tkazilgan qisqa maslahat-kengashdan so'ng Temur qo'shinlarini uch qismga bo'lib, Anqo To'ra va uning qo'shinini izlab

topishga kirishdi. Jamoliddin Hamid va shahzoda Umar-SHayxning askarlari yovni o'rab olishga kirishdi, Temur bo'lsa o'rtada qolib, dushman ustiga yurdilar. Umar SHayx asrkarlari SHerbat yo'lidan borib, Qora Xujarni kesib o'tdilar-da, mo'g'ullarning asosiy chekinish yo'llarini to'sib qo'ydilar. Qiyos mavzeida Umar SHayx Anqo To'rani quvib yetib, mag'lubiyatga uchratdi. To'ra chekindi. Anqo To'rani quvib, Umar SHayxning o'g'lonlari Olako'lgacha bordilar.

Manba'lar Anqo To'raning To'xtamish bilan aloqalari to'g'risida biron-bir xabar bermaydilar. Ammo, mo'g'ullar, qudratli Temurga qarshi kurashish niyatida u bilan (Anqo To'ra bilan) ittifoq bo'lishga intilganlar va 1388 yili haqiqatan ham mo'g'ul hokimi Qamaruddin To'xtamish bilan ittifoq bo'lishga erishib, Umar SHayxni Jo'lakdagi jangda yengishga muvaffaq bo'lgan.

YUqori keltirilgan dalillar, birinchidan, Dashti Qipchoqning cho'l qismi O'zbek dashti deb atalganidan, ikkinchidan esa, bu paytga kelib ko'chmanchi o'zbeklar Sirdaryoning o'imol tomonidagi yerlarning anchagina qismida hukmron ekanliklaridan dalolat beradi. To'xtamish qo'shinlarining aksariyati ko'chmanchi o'zbeklar edilar.

Xondamir ham 1388-89 yillar voqealari haqida so'z yuritganida To'xtamish qo'shinlarini o'zbek qo'shinlari deb ataydi. 1391 yili Quduzchadagi jangda qatnashgan qo'shinlarni ham Xondamir o'zbek qo'shinlari deydi. Mu'inuddin Natanziy, yedigey va Qutlug' Temurlar bosh bo'lib 1399 yili To'xtamishga qarshi chiqqan askarlarni ham o'zbeklar deydi. yedigey uning ukasi Isabek va Oltin O'rdaning ko'zga ko'ringan boshqa amirlari hamda SHodibek, Po'lodxon, Ulug' Muhammad)yoki Muhammadxon) yuqorida nomlari keltirilgan tarixnavislar tomonidan Dashti Qipchoq va o'zbek viloyatlarining hokimlari deb atalganlar. Bu masala bo'yicha Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") risolasi

diqqatga sazovordir. Bu asarda O'zbekxon o'zbek ulusiga podshoh bo'ldi, deyiladi. So'ngra, 720 h. Yilda Sayyid Otaning sa'iy-harakatlari bilan Dashti Qipchoq aholisi musulmon dinini qabul qildilar. Islomni qabul qilganlarni o'zbeklar, qabul qilmaganlarni esa qalmiq (qalmoq) deb atay boshladilar.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilib aytish mumkinki, "o'zbek" iborasi Dashti Qipchoqdagi turk-mo'g'ul aholisining umumlashgan atama nomi sifatida XV asrdagina paydo bo'lgan. Ammo, o'zbeklar Dashti Qipchoqda faqat XIV asr oxirlari, XV asr boshlaridagina paydo bo'lganlar, deb o'ylash xato bo'lar edi. Hozirgi o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa xalqlarning ajdodlari shu xalqlar hozir yashayotgan yerlarda qadim zamonlarda ham yashaganlar, lekin o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar deb atalmaganlar. Tarixiy adabiy manbalarda Dashti Qipchoqning sharqiy qismida qadim zamonlardan beri turk qabilalari yashaganlari haqida anchagina ma'lumotlar mavjud. bu yerlarni XIII asr boshida zabt etgan mo'g'ullar bo'lsa, Dashti Qipchoqning turk qabilalari orasida tez o'arda singib ketganlar va xatto o'z milliyligini yo'qotganlar. Schingizxon qo'shinlarining ko'pgina qismini turkiy qabilalar tashkil etganligini ham unutmaslik zarur. Mas'ud ibn Usmon Ko'kistoniy shahodat berishicha, Oq O'rda, ya'ni ko'chmanchi o'zbeklar tarkibiga quyidagi qabilalar kirgan: burqut, qiyot, qushchi, qo'ng'iro't, ushun (usun), o'tachi, nayman, jot, chimboy, qorliq, kenagas, do'rmon, qurlovut, tub, oyi, mang'it, no'kuz, uyg'ur, xitoy, toymas, echki, tuman-ming. Kamoliddin Binoiyning "SHayboniynoma" asarida, XV asrning 80-yillarida SHayboniixonni qo'llab turuvchi qabilalar orasida yana shodbog'li va shunqorli qabilalari ham eslab o'tiladi. Mahmud ibn Valining so'zlariga qaraganda, Abulxayrxonning qo'shinlarida uyg'ur, mo'jor va qipchoqlarning jangovar guruhlar bo'lgan.

Bu qabilalarning kelib chiqishlari turli xilda. Masalan, qo'ng'iro't, no'kuz va qiyotlar – mo'g'ulga, tangutlar bo'lsa – Tibetga taaluqli.

Xitoylar xususiga kelsak, ularning ajdodlari X-XI asrlarda shimoli-sharqiy Xitoyda yashab hukmronlik qilgan kidonlardir.

Ro'zbexon XVI asr boshlarida "o'zbeklarga uch toifa, ("xalqni") ya'ni qabilalar birlashmasini taaluqli, - deydi, - bular SHaybon ulusiga qarashli barcha qabilalar, qozoqlar va nihoyat, mang'itlardir". Ma'lumki, Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi o'zbeklar ittifoqini tashkil etgan ko'p qabilalar zamon o'tishi bilan parchalanib ketib, uning bo'laklari qozoqlar, qoraqalpoqlar, boshqirdlar va boshqalarning tarkibiga kirganlar, ammo o'zlarining qabila nomlarini saqlab qolganlar.

XV asrning boshlarida yuqorida aytib o'tilgan qabilalarning bir qismi (o'zbeklar, sharq mualliflari iboralari bo'yicha – "o'zbekon") SHayboyniyxon atrofida birlashib, Qipchoq dashtidan O'rta Osiyoga bostirib kirdilar va hozirgi O'zbekiston xududida turg'un bo'lib qoldilar. SHu paytdan boshlab "o'zbek" iborasi etnik ma'no kasb etdi va bu xududdagi turkiy aholi "o'zbek" nomini qabul qildi. SHu yerda ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ko'chmanchilar avval qaysi qabilaga mansub bo'lsalar, o'sha nomni saqlab qolganlar va to XX asrgacha ajdodiy-qabilaviy bo'linishlarni saqlab qolganlar. Ammo, bu o'zbek xalqining kelib chiqishi XVI asrga to'g'ri keladi, degan gap emas. Bu yerda so'z faqat "o'zbek" iborasining etnik nomi sifatida paydo bo'lgan vaqt haqida ketmoqda. Ma'lumki, qadimdan O'rta Osiyoda turkiy va turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlar yashaganlar. Dashti Qipchoqning ko'chmanchi o'zbeklari bo'lsa, Movarounnahrning turkiy aholisi orasida singib ketib "oxirgi qo'shilganlar sifatida o'z nomlarini ularga berganlar".

Endi asosiy manbalar haqida. Biz tadqiq etayotgan muammoga doir asosiy manbalarni qisqacha bayon qilishdan avval, Mas'ud ibn Usmon Ko'hisoniyning asaridan boshqa ko'chmanchi o'zbeklar davlatining siyosiy tarixini aks ettiruvchi risolalar yo'q ekanligini ta'kidlab o'tamiz. Avvalgi

Jo'chi ulusi g'arbiy qismining tarixi bo'yicha turli tillarda yozilgan manbalar ko'p bo'lsa ham, SHaybon ulusining tarixi manbalarda yaxshi yoritilmagan. Agar Mu'iniddin Natanziyning qimmatli, ammo deyarli o'rganilmagan "Muntaxab ul tavorix" nomli asarini hisobga olmasak, bunday manbalar O'rda ulusi bo'yicha ham yo'q. SHuning uchun ushbu satrlarning muallifi temuriylar davriga mansub, asosan SHayboniyxon zamonida va undan keyingi paytlarda yozilgan asarlarga murojaat etishga majbur bo'ldi. Mashaqqatli izlanishlar natijasi o'laroq, qatralab zarur ma'lumotlar to'plandi. Bu manbalar, bittasidan tashqari, fors tilida yozilgan: ularning tili zamon talabiga muvofiq saj bilan yozilgan o'xshatishlar, mubolag'alarga boy, "Qur'oni karim"dan va xadislardan ko'p ko'chirilgan (ayniqsa "Mehmonnomai Buxoro") hamda she'rlar ko'p keltirilgan.

Bularning hammasi asarni boyitib bezasa ham, ma'lum darajada o'qishni qiyinlashtiradi.

Bu asarlarning mualliflari yerli feodal xokimlarning saroylarida xizmat qiluvchi shaxslar bo'lganlari uchun ularning qahramonliklari va xayrli ishlarini madh etadilar. Bu kitoblarda xokim bo'lgan feodal oliy tabaqa g'oyalari asosiy yo'nalish bo'lganligi sababli mehnatkash ommaning hayoti yoritilmagan, ijtimoiy-iqtisodiy dalillar kam uchraydi. Bu manbalarni tanqidiy o'rganish jarayonida ularning shunday xususiyatlari hisobga olindi.

Ularning ba'zilariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Ko'chmanchi o'zbeklar haqida, aniqrog'i ularning temuriylar bilan XIV va XV asrlardagi o'zaro aloqalari to'g'risida Abdurazzoq Samarqandiyning (1413-1482) qimmatli, ammo shu paytgacha tadqiqotchilar tomonidan kam o'rganilgan "Matla' us-sa'dayn" asarida anchagina ma'lumotlar mavjud. Tilining jimjimadorligi va bayonning an'anaviyligiga qaramay, Abdurazzoq Samarqandiyning asari ma'lum darajada haqgo'y bo'lib, Movarounnahr va Xurosonning XV asr tarixini o'rganish bo'yicha bebaho tarixiy manbadir. Bu

asar mutolaasi davomida o'quvchi tashqi va ichki sabablar ta'sirlarida davlatlari inqirozga yuz o'girayotgan paytdagi SHohruh va Abusa'idlarning davrlarini ko'z o'ngiga keltiradi. Zolagonlar o'zaro kurashlarining tasviri, qishloq va shahar aholisining ahvoli, oz bo'lsa-da feodal institutlar va yer egaligi , soliqlar, temuriylarning ko'chmanchi o'zbeklar bilan o'zaro aloqalari butun kitobda o'z aksini topgan va faqat diqqat bilan o'qilgandagina kerakli ma'lumotlarni saralab olish mumkin bo'ladi. Abdurazzoq Samarqandiyning asaridan olingan ma'lumotlar bu kitobga qisman asos bo'ldi.

Mirxondning (Muhammad ibn Xovandshoh ibn Mahmud (1433-1498) mashhur, salmoqdor asari "Ravzatus-safo" ("Pokiza jannat bog'i")da ko'chmanchi o'zbeklarning temuriylar bilan o'zaro aloqalari haqida ba'zi ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlarga avvalo, Jumaduiq nomli o'zbek o'g'lonining 1420 yili Samarqandga elchilar yuborgani, SHohruhning ko'chmanchi o'zbeklarning xurujlaridan saqlanish uchun saltanatning shimoliy chegaralarini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirgan tadbirlari kiradi. Mirxond ishini uning nabirasi, XV asrning oxiri, XVI asrning boshlaridagi yuksak iste'dodli tarixchi Xondamir (G'iyosiddin ibn Xumomiddin Muhammad Xovand Amir – 1475-1535) davom ettirgan. Uning asari – "Xabibus siyar" ("Do'stlarning hayotnomalari") uchinchi qismidagi ma'lumotlardan ushbu risolamizda bir muncha foydalanildi. Bu asarda Sulton Husayn Boyqaroning o'zbek xonlaridan biri bo'lgan Abulxayrxon bilan o'zaro munosabatlari batafsil tasvirlangan.

Mirzo Muhammad Haydarning "Traxi Rashidiy"sida o'zbek zodagonlarining XV asrning ikkinchi yarmidagi o'zaro kurashlari va ko'chmanchi o'zbeklar davlatining inqirozi ozroq o'z aksini topgan.

Muallifi noma'lum bo'lgan "Tarixi guzida. Nusratnoma"da ("Saylangan tarixlar. Zafarlar kitobi")ko'chmanchi o'zbeklar davlatining

tuzilishi haqida fikr yuritishga imkoniyat beruvchi ma'lumotlar mavjud. Kitobda o'zbeklarning qo'shini va bu qo'shinni moddiy ta'minlab turish uchun aholidan olinadigan soliqlar haqida hikoya qilinadi. Bundan tashqari, unda ba'zi bir majburiy xizmatlar va raiyatlar olinadigan boshqa soliqlar (xiroj, sovurin, oshlig' va b.) haqida ma'lumotlar bor. "Nusratnoma" eski o'zbek tilida yozilgan va 1505 yillarda yozilgan. Bu asar turklarning qadimgi afsonaviy ajdodlari va CHingizxondan tortib toSHayboniyxon tomonidan Andijonning zabt etilishigacha bo'lgan katta bir davrni qamragan. "Nusratnoma"ning turklarning qadimiy ajdodlari va CHingizxon haqida hikoya qiluvchi birinchi qismi alohida qimmatga emas, muallifning e'tirof etishiga ko'ra, undagi ma'lumotlar Juvayniy, Rashididdin va boshqa avvalroq o'tgan tarixnavislardan olingan. Bulardan tashqari, muallif Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" risolasidan foydalangan.

"Nusratnoma"ning faqat ikki nusxasi ma'lum. Biri SHarqshunoslik ma'xadi (institut)ning Sankt-Peterburg bo'limi kutubxonasida, ikkinchisi – Angliyada, Britaniya muzeyida.

Bu asarda Abulxayrxon vafotidan keyin ko'chmanchi o'zbeklar davlatining ahvoli, SHayboniyxon va boshqa o'zbek sultonlarining Movarounnahrğa yurishlari batafsil yozilgan. "Nusratnoma"ning Abulxayrxon vafotidan keyin. To shayboniy o'zbeklarning Movarounnahrğacha bostirib kirgunlarigacha bo'lgan voqealar hikoya qilingan bo'limlari "SHayboniynoma" mazmuni bilan deyarli bir xil.

Ikkala muallif ham bitta asosiy manbadan foydalangan bo'lsalar ajab emas.

Muhammad Solihning "SHayboniynoma" manzumasida ham ko'chmanchi o'zbeklarning ijtimoiy va siyosiy hayotiga oid ancha dalillar bor. Olimlar tomonidan xali yaxshi e'tibor berilmagan, ammo juda qimmatli

ushbu asarning muallifi Temur va SHoxruxning yuqori mansabli amirlaridan biri bo'lgan SHoh Malikning avlodidan Muhammad Solihdir.

Muhammad Solihning “SHayboniynoma”si SHayboniynonning 1500-1505 yillardagi qozongan zafarlari va fotehligining madhiyasidir. U eski o'zbek tilida yozilgan bo'lib, o'zida boy etnografik dalillar va o'zbek qo'shinlari hamda u paytlari fuqarolarga yuklatilgan majburiyatlar, ba'zida sovurin, omonlik moli (moli omon), oshlig' kabi soliqlar haqida qimmatli ma'lumotlarni jam etgan. Muallif o'zbeklarning mo'g'ullar bilan ayniqsa, ularning Toshkentdagi hokimi Sulton Mahmudxon bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari va Movarounnahrda temuriylar davlatining XIV asr oxirlari – XV asr boshlaridagi ahqoli haqida mufassal hikoya qiladi.

Kamoliddin Binoiyning SHayboniynonga bag'ishlangan va uning ko'rsatmasi bilan tuzilgan “SHayboniynoma” deb ataluvchi tarixiy asarida ham ko'chmanchi o'zbeklar tarixi haqida ancha qimmatli ma'lumotlar bor.

Binoiyning ushbu asari ko'chmanchi o'zbeklar davlatida SHayx Haydarxon hukmdoligidan boshlab bo'lib o'tgan voqealarni hikoya qiladi va SHayboniynonning Xorazmni zabt etishi bilan yakunlanadi. SHayx Xaydarxonning taxtdan tushishi va shu bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlati inqirozining sababini Binoiy Dashti Qipchoq aholisining xonga bo'lgan ishonchsizligida deb tushunadi. “Abudxayrxonning vafotidan keyinroq, - deb yozadi Binoiy, - bu paytni eng qulay hisoblab, viloyatlarning sultonlari SHayx Xaydarxonga qarshi bosh ko'tardilar”. Binoiyning asarini qanchalik zaiflashib qolganligi ravshanlasha boradi. Binoiyning aytishicha, SHayx Xaydarxonning ko'pdan-ko'p da'vatlariga qaramay, o'zining shaxsiy navkarlaridan boshqa hech kim qarorgohga kelib qo'shilmadi, natijada u Ahmadxon , Iboqxon, Burka sulton va mang'itlarning birlashgan qo'shinlariga bardosh berolmadi. Bu ma'lumotlardan Abulxayrxondan keyin o'zbek davlatida uluslar tarqoqligi qanchalik kuchayib ketgani ma'lum

bo'ladi. SHayx Xaydarxonning ularni birlashtirish uchun qilgan urinishlari behuda ketgan edi.

Bundan tashqari, Binoiyning "SHayboniynoma"sida SHayboniynon va Abulxayrxonning boshqa avlodlari – Ko'chkunchi sulton, Suyunchxo'ja va boshqalarning "qozoqlik" yillari, ularning Urusxon avlodlari bilan o'zbek ulusida xukmronlik uchun kurashlari va nihoyat ko'chmanchi o'zbeklarning temuriylar hamda qozoq xonlari bilan avvalida Sirdaryo bo'yi shaharlari: YAssi, Savron, O'tror, so'ngra Movarounnahr uchun olib borgan kurashlari batafsil bayon qilingan. Ma'lumki, Movarounnahr temuriy hukmdorlarining o'zlari ko'chmanchi o'zbek zodagonlarini shu payt Toshkent shahri va viloyati qo'l ostida bo'lgan temuriylarning shimoliy chegaralariga tahdid qilayotgan mo'g'ullar bilan kurashga jalb etdilar. O'z navbatida mo'g'ullarning Toshkentdagi hokimi Sulton Maxmudxon ham temuriylar bilan kurashda ko'chmanchi o'zbeklardan madad olib turardi. SHayboniy boshliq o'zbeklar ham goh temuriy Sulton Ahmad mirzoga xizmat qilishar, gohida Sulton Maxmudxonga ko'mak berishardi.

1.2. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining tashkil topishi.

Ma'lumki, XIV asr boshlarida Jo'chi ulusi ikkita mustaqil davlatga: tarixda Oltin O'rda nomi bilan mashhur bo'lgan Ko'k O'rda va Oq O'rdalarga batamom ajralib ketdi. Oq O'rda Oltin O'rdaga tobe' sifatida bo'lsa ham, hokimiyat tepasida Jo'chi ulusiga mansub sulola turar edi. Oq

O'rdada asosan O'rda-Ichen va SHaybon avlodlari, Oltin O'rdada esa – Botuxon va Tug'a Temur avlodlari hukmronlik qilardilar. SHuni ham aytib o'tish zarurki, Jonibekning vafotidan keyin Oltin O'rda SHaybon va Tug'a Temur avlodlari orasidagi hokimiyat uchun kurash maydoniga aylanib qoldi.

XIV asrning 60-yillarida Oltin O'rdani, qamrab olgan Tug'a va Jo'chi avlodlari o'rtasida hokimiyat uchun bo'lgan kurash tarixnavislik fanida bir muncha yoritilgan. SHunga qaramay biz bu masalaga bir oz to'xtalib o'tishga qaror qildik, chunki, aks xolda Abulxayrxonning XV asr birinchi yarmida Dashti Qipchoqning sharqiy qismida erishgan katta yutuqlarini tushunish qiyin bo'ladi.

1360- va 1380 yillar orasida, ya'ni hokimiyatni To'xtamishxon qo'lga olganiga qadar, Oq O'rdada ham hokimiyat tepasiga "25 yoshdan ortiq o'zaro kurashayotgan xonlar turishadi". Bu xonlar, ma'lum bir zodagonlar guruhlarini qo'ygan hokimlar bo'lib, u guruhlar davlatning ham xonlarning ham taqdirini hal qilar edilar. Bu ma'noda bir-birlari bilan raqobat qiluvchi xonlar – Murod va Abdullohlar orasida XIV asrning 60-yillaridagi kurash diqqatga sazovordir.

Murodxon va Abdullaxonlar o'rtasida Oltin O'rda taxti uchun kuchli kurash borardi. Taxt uchun kurashda ulardan birortasining ham qo'li baland kelmagan bo'lsa-da, Oltin O'rdaning mashhur lashkarboshisi Mamay qo'llagan Abdullaxonning ahvoli ancha tuzuk edi. 1362 yili Mamay Qrimni bosib oldi va u yerda dastlabki paytlarda o'z nomidan tangalar zarb ettirdi. Murod bo'lsa 1362-63 yillarda taxtdan ag'darilib, o'ldirildi. Saroyda esa hokimiyatni, Mir Po'lod nomi bilan tangalar zarb qildirgan shayboniy Po'lodxo'ja egallab oldi. Po'lodxo'ja qancha hukmron bo'lgani noma'lum, bizga uning YAngi Saroyda va Gulistonda 1362-63, 1363-64 yillarda zarb qildirgan tangalari yetib kelgan.

1366-67 yillarda Mamay. Abdulloh Saroy va Xorazmni zabt etishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo Mamay va Abdullohlar Saroyda uzoq hukmron bo'lib qolmadilar va 1369-70 yili u yerdan chiqib chiqarilgan bo'lsalar kerak, chunki Abdulloh bu paytda faqat O'rda va Azakda tanga zarb qildirar edi.

1369-70 yili Abdulloh taxtdan chetlatildi va Mamay Muhammad Buloqni xon deb e'lon qildi. Tangalar bo'yicha mulohaza yuritiladigan bo'lsa, Mamay va yangi xon anchagina yerlarni – Qrim, Xoji Tarxon va Mojorni bo'ysindirishga muvaffaq bo'lganlar. Ammo, Oltin O'rda poytaxti Saroy Berkani ular egallay olmaganlar.

XIV asrning 70-yillarida Oltin O'rdada zodagonlarning o'zaro kelishmovchiliklari yanada kuchaydi va bu kurashda shayboniylar faollik ko'rsatdilar. Manba'larda To'linbikaxonim nomi ham esga olinadi. Saroyda 1371-72 yillari uning nomi bilan zarb etilgan tangalar bizga ma'lum. Bu ayol Oltin O'rda poytaxtida qachongacha hukmron bo'lib turganligi to'g'risida manba'larda yozilgan emas. Ammo, Ibn Xaldun bergan ma'lumotlarga qaraganda To'linbekaxonimning hukmronligi uzoqqa cho'zilmagan.

SHunisi diqqatga sazovorki, 1373-74 yillari Saroychiqda SHayboniy xonadoniga mansub ikki xon: Elbon va Alpxojalar tangalar zarb qildirgan, lekin ikkinchi xonning nomini biz manba'lardar topa olmadik. sambaurning tuzgan zijida Alpxo'ja SHayboniy xonlar qatoriga kiritilgan. P.S.Savilev, xuddi o'sha 1373-74 yillari Saroychiqda va Alpxo'ja nomlari bilan zarb etilgan tangalarni taqqoslab ko'rib, ikkita ayrim-ayrim xonlarning tangalari, degan xulosaga keldi.

SHayboniylarning Saroychiqda bo'lishlari va o'z nomlari bilan tangalar zarb qildirishlaridan bu shahar ularning qarorgohlaridan biri bo'lsa kerak, degan fikr tug'iladi. A.Levshin Saroychiq va SHaybonning o'zi tomonidan yoxud "Saroychiq hukmdorlaridan ajralib chiqib bizning solnomalarimizda YOyiq orti o'rdasi nomi bilan atalgan alohida bir o'rda" tuzgan xonlarning

biri tomonidan bunyod etilgan degan fikrni bildiradi. YUqorida aytib o'tilganiday, "YO'yiq orti O'pdasi" deb rus solnomachilar, SHayboniy ulusi ham kirgan Oq O'rdani nazarda tutganlar. Abulg'ozixonning aytishicha, Mangu Temur Oltin O'rdaga xon bo'lganidan keyin u "ulug' va yosh avlodga mansub qarindoshlariga nisbatan... Botuxonning amriga binoan ish yuritdi va shu sababdan Oq O'rdani SHayboniyxonning o'g'li Bahodirxonga berdi". Maxmud ibn Vali ham shunday deydi. Saroychiqqa Bahodirxon asos solganmi? – degan tabiiy bir savol tug'iladi. Harqalay, XIV asrda Saroychiq kattagina shahar bo'lgan va ovrupolik savdogarlarga, xususan genuyaliklarga Ovrupo va Osiyo o'rtasidagi muhim savdo markazi bo'lgan, Urganch, Buxoro va sharqdagi boshqa shaharlarga borayotgan karvonlar Saroychiq orqali o'tganlar. XVI asrda Saroychiqni o'z mollari bilan rus savdogarlari keladigan muhim tijorat shahri sifatida bilganlar.

1375-1376 yillari Saroyda SHaybon avlodidan bo'lgan Koonbek (Kogonbek) hukmronlik qilgan. Bu xon haqida P.S.Saqilev bunday deb yozadi: "...Bu yili Oltin O'rda poytaxtida Koonbekning o'zi hukmronlik qildi, Abdulloh va Muhammad Buloqlar esa Mojoy, Astraxon, Azov, Volgabo'yi va Zayaitsk(Dashti Qipchoq) dashtiga u bilan bir vaqtda hukmronlik qilardilar va shahar yoxud biron bir qarorgohlarida o'zlarining tangalarini zarb qilardilar". P.S.Savilevning Abdulloh va Muhammad Buloqning bir vaqtda hukmronlik qilganlari, ularning hukmronliklari Zayaitsk dashtigacha bo'lganligi haqidagi xulosalari fikrimizcha, noto'g'ri bo'lsa kerak. ma'lumki, bu ikkala xon ha Volganing o'ng qirg'oq yerlarini o'ziniki qilib olgan Mamay tomonidan qo'yilgan xonlar edilar va ularning hukmi daryoning chapqirg'og'ida kuchsiz edi. Buning ustiga Abdulloh Muhammad Buloqqacha hukmronlik qilgan.

O'sha yillari Oltin O'rdadagi hokimiyat uchun yana bir SHayboniy – Arabshoh tinimsiz kurash olib borardi. Tangalarga qaraganda, Arabshoh

1373-1374 yildayoq YAngi Saroyga hukmronlik qilgan. Arabshohning 1377-1378 yillari Saroydda zarb qildirgan tangalari bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Demak, uning Oltin O'rdadagi hukmronligi 1377 yilgacha davom etgan, deb faraz qilish mumkin. Keyingi yillarda Arabshoh haqida biror ma'lumot yo'q.

XIV asrning 60-70 yillaridagi Oltin O'rdaning siyosiy tarixidagi voqealarni tahlil qilib, quyidagi qisqacha xulosalarga kelish mumkin:

1. O'zaro janjallar va tug'yonlardan darz ketgan, qachonlardir qudratli va yagona Oltin O'rda XIV asrning 60 yillari boshidan boshlab mayda mulklarga bo'linib ketdi. Ularning ichida eng kattalari Volganing o'ng qirg'og'idagi Mamay O'rdasi hamda Volga va O'rolning sharqiy tarafidagi yerlarga hukmronlik bo'lgani hmqida rus solnomalarida "Zayaitsk" yoki "Sinyaya Orda" tilga olingan o'rdalar edi.

2. Oltin O'rda hokimiyatiga O'rda-Ichon, Tug'a Temur va SHaybon avlodlari asosiy davog'arlar edilar.

Oltin O'rda sulolaviy kurashlar va tug'yonlar natijasida tobora inqirozga uchrayotgan bir paytda, 1380-1381 yili Oltin O'rdani birlashtirishga muvaffaq bo'lgan To'xtamish davri ayniqsa, Oq O'rda kuchaya boshladi. To'xtamishning Oq O'rdada ham, Volga buyida ham bunday tez sur'atda muvaffaqiyatga erishishiga sabablardan biri Temurning unga faol yordam berishi va rus qo'shinlari tomonidan 1381 yili Mamayga qattiq zarba berilishi bo'ldi. SHundan keyin To'xtamish Volgadan o'tib Mamayni Kalka daryosi bo'yida uzil-kesil tor-mor etdi. Mamay Qrimga qochdi va u yerda kafaliklar tomonidan o'ldirildi, To'xtamish bo'lsa, "Mamay O'rdasini zabt etib, malikalarni ham, xazinasini ham, o'rda, bozorlarni ham, ulusini ham, boyliklarini ham tortib olib..." qaytib ketdi.

To'xtamish Oltin O'rdaning avvalgi qudratini tiklashga ko'p sa'iy-harakatlar qilib, anchagina muvaffaqiyatlarga erishdi. "Faqat Xoji Tarxondan

to Bulg'orgacha bo'lgan Volgabo'yigina emas, balki SHimoliy Qofqoz ham, Volga va Qrimning g'arb tomonidagi viloyatlar ham To'xtamishga o'tgan edi". 1383-84-1387 yillari To'xtamishga Xorazm ham buysunar edi, bunga shu yillarda uning nomi bilan Xorazmda zarb etilgan tangalar dalolat beradi. To'xtamishning Oltin O'rda ustidan humkronligi nisbatan mustahkamday ko'rinar edi. Ammo uning jiddiy muxoliflari bo'lib, ulardan biri 1389 yili To'xtamish tomonidan asir olingan Oltin O'rdalik Temur Qutlug' edi. Saroyga olib kelishayotganda yo'lda Temur Qutlug' qochib Samarqandga, Temur huzuriga bordi. Ammo solnoma muallifi ko'rsatgan yil xato yozilgan. Temur Qutlug'ning Temur saroyiga oldinroq kelgani ma'lum. 1388 yili Temurning qilgan beshinchi yurishini bayon qilar ekan, SHarafuddin Ali YAzdiy bunday deydi: "(oldinroq) To'xtamishdan ayrilib, Temur saroyiga yaxshi o'rnashib olgandan so'ng SHayx Ali baxodir va SHayx Temur baxodirlar bilan qorovul Temur Qutlug' va Kunchi o'g'lonlari bordilar". Nizomiddin SHomiy ma'lumoti bo'yicha Temur Qutlug' Amir Temur huzurida 1388 yildan to 1391 yilgacha bo'lgan.

1391 yilning iyun oyida Qunduzcha daryosi bo'yidagi vodiya Temur bilan To'xtamish orasida o'sha davrga nisbatan nihoyatda katta jang bo'ldi. Bu jangda To'xtamish yengilib, omonqolgan askarlari bilan jang maydonini tashlab qochdi. 1395 yilgi Terek daryosi buyidagi jang ham To'xtamishning mag'lubiyati bilan tugadi, shundan keyin u bulg'or o'rmonlariga qochib berkindi. Temur saroyni bosib olib, talon-taroj qildi. Ko'p vaqt o'tmay To'xtamish o'sha yilning o'zida yana saroyni qaytarib oldi va Oltin O'rdadagi o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qildi. Ammo kelgusi – 1396 yili Temur Qutlug' uni tor-mor etib, saroyni oldi.

Temur Qutlug' ham Oltin O'rdada uzoq vaqt hukmron bo'lib turmadi, u juda yosh paytida 1401 yili vafot etdi.

XV asrning birinchi choragida Oltin O'rdada o'zaro janjallar va tug'yonlar kuchaydi, bunga 17 yil ichida Oltin O'rda taxtida CHingiziylardan sakkizta xon almashgani (SHodibek, Po'lodxon, Temurxon, Jaloluddin Sulton va boshqalar) dalolat beradi.

Biz, bu davrda Oltin O'rdada ro'y bergan voqealar to'g'risida to'xtalib o'tirmaymiz, chunki ko'p marta eslatib o'tilgan B.D.Grekov va A.YU.YAkubovskiylarning kitoblarida yetarli darajada yoritilgan.

To'xtamishning mag'lubiyatidan keyin, XIV asrning birinchi choragida o'zbek ulusi deb atala boshlagan Oq O'rdada ham o'zaro janjallar va g'alayonlar kuchaya boshladi.

Temur va To'xtamishlarning o'zaro muxorabalari avj olgan yillari Urusxonning o'g'li Quyrichoq o'g'lon ham sohibqiron Temurning arkoni davlati orasida edi. Temur 1395 yili Terek daryosi vodiysida To'xtamishni tor-mor etgandan keyin "Idil (Volga)ning Turatur deb ataluvchi kechuv joyiga keldi va u yerda karorgohda turgan Urisxonning o'g'li Quyrichoq o'g'longa saroy xizmatini o'tovchi jangovor o'zbek yigitlarining bo'linmasini berdi, shohona martaba asboblarini tayyorlatib, zarrir chopon va oltin kamar bilan taqdirlab, Idildan kechib o'tishni buyurdi va unga Jo'chi ulusining xonligini brdi. Jo'chi ulusidan bo'lgan shaxzoda esa (Temurning) amriga binoan daryoning narigi qirg'og'iga o'tib, parokanda qo'shirlarni yig'ish hamda ulusni tartibga keltirish bilan mashg'ul bo'ldi".

YUqorida aytib o'tilganidek, Temur Qutlug' 1396 yili To'xtamishni mag'lubiyatga uchratib, Saroyni oldi, Quychiroq o'g'lon bo'lsa, o'zbek ulusiga, ya'ni Oq O'rdaga hukmronlik qilgan bo'lsa kerak. manba'larda yetarli darajada ma'lumotlar bo'lmagani uchun uning hukmronligi qanday bo'lgani va qachongacha davom etgani haqida biror narsa deyish qiyin. Abdurazzoq Samarqandiyning qoldirgan ma'lumotlariga qaraganda Ulug'bek va SHohruxlar SHayx Nuriddin bilan kurashgan paytlarda 1416 yilning

boshlarida To'xtamishning o'g'li Jabboorberdi tomonidan taxtdan ag'darilgan CHingiz o'g'lon hukmronlik qilgan edi. Quychiroq o'g'lonning O'zbek ulusidagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmagan va 1409-1410 yillargacha davom etgan. 1418-1419 yillarda esa O'zbek ulusining hukmronligiga Quychiroq o'g'lonning o'g'li Baroq o'g'lon va Tug'a Temurning o'g'li Ulug' Muhammadlar (sharq manba'larida Muhammadxon) davo qilishardi. Oxir oqibat, Ulug' Muhammad g'olib chiqdi. Baroq Samarqandga qochib borib, Ulug'bek saroyida boshpana topdi. Ulug'bek unga harbiy yordam berdi, ammo u yana Muhammadxondan mag'lubiyatga uchradi va uzoq vaqtlargacha O'zbek ulusi atrofida sarsonlikda yurdi.

Rus solnomachisining xabar berishiga ko'ra, o'sha yillarda Baroq o'g'lon taxtga boshqa bir da'vogar xon – To'xtamishning o'g'li Kepak bilan to'qnashib, uni yengdi. 6930 (1420) yil voqealari bo'yicha Nikon solnomasida quyidagilarni o'qiymiz: “O'sha yozning o'zida, avgustning 31 kuni Baroq shoh Qudaydat shohri urdi (engdi)”. Yana rus solnomalaridan Baroq shu yillar davomida O'zbek ulusi atrofida “daydib” yuribgina qolmay, balki Volga ortining uzoq yerlarida ham bo'lganini bilamiz. Solnomada 6931 (1423) yilga oid bunday voqea yoziladi. “O'sha yozning o'zida Baroq shoh Odoyevga keldi, shaharni olmadi, asirlarni dalaga haydashga buyurdi. Odoyev Knyazi YUriy Romanovich Odoyevskiy hamda Muyen voyevodasi Grigoriy Protasiyevich shohga qarshi chiqib uni yengishdi, asirlarni esa tortib olishdi”. O'sha 1423 yilning yozida Baroq Ulug' Muhammadni yengib, O'zbek ulusidagi hokimiyatni qo'lga olgan bo'lsa kerak. buni musulmon manba'lari ham tasdiqlaydilar. Masalan, Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Baroq o'g'lon 1422-1423 yillari O'zbek ulusining ko'p qismini bosib oldi.

Tor-mor qilingan Ulug' Muhammad shimol tomonga qochib, Bug'or yerlarida o'rnashib oldi va 1423 yilning kuzida Ryazan atroflarini talon-taroj

qildi, ozroq vaqt o'tganidan keyin esa, Litva buyuk knyazi Vitovtning saroyida paydo bo'ldi va uning yordam berishi to'g'risidagi va'dasini oldi.

Baroq o'g'lon Ulug' Muhammadga qarshi kurashini davom ettirib, qisqa vaqt ichida Saroyni va Oltin O'rdaning boshqa shaharlarini tortib oldi. SHuni ham aytib o'tish kerakki, Baroq Oltin O'rda taxtiga yana bir da'vogar – Davlatberdini ham yengdi. XV asr arab tarixnavisi al-ayniyning ma'lumotlariga qaraganda, Davlatberdi Qrimga qochgan, ammo Qrim va uning atrofini 1426-1427 yillari bosib olgan Ulug' Muhammad tomonidan siqib chiqarilgan.

Baroq hokimiyat tepasiga uzoq turmadi. 1428-1429 yillari u o'ldirildi. Uning qanday sharoitlarda o'ldirilgani noma'lum. SHu paytdan keyin uning nomi Oltin O'rda tarixida boshqa uchramaydi.

Al-Ayniyning yozishicha, 1424-1425 yili Dashti Qipchoqda tartibsizliklar va g'alayonlar yanada kuchaygan, “xon avlodidan bo'lgan bir necha shaxs g'olib chiqqan” va “ularning har biri o'z o'lkasiga hukmronlik qilganlar, ammo hech qaysisining ishi uncha yaxshi bo'lmagan”. Ularning ichida eng faollari – Ulug' Muhammad, Kichik Muhammad va uning o'g'illari Mahmudxon va Ahmadxonlar, Davlatberdi hamda o'sha paytlari Volganing o'ng qirg'og'ida ko'chib yuruvchi va Odoyev shahri atroflariga bosqinlari bilan mashhur bo'lgan. Kepaklar edilar. Al-Ayniy o'sha yillarda SHaybonning axvoli qanday ekanligini bilmagan. Ammo, shunday bo'lsa ham uning Oltin O'rda haqidagi gaplari o'sha paytlardagi SHaybon ulusiga ham to'la taaluqlidir.

SHu munosabat bilan SHaybon ulusi haqida ham fikr bildirib o'tish zarur. Avvalo, bu ulusning chegaralarini aniqlash mushkul ish. Abulg'ozixonning ma'lumotlariga qaraganda, SHaybon yoz faslida O'rol tog'i yonbag'ri va Tobol, O'rol, Ilek, Irgiz daryolari orasidagi yerlarda, qishda esa, Orol dengizi sohili, CHuysuv, Sarisuv daryolarining buyi va

Sirdaryoning quyi oqimi atrofida ko'chib yurgan. Agar, Mahmud ibn Valiga ishonib bo'lsa, u holda SHaybondan so'ng hukmronlik qilgan Baxodir davrida Oq O'rda ham SHaybon avlodining tasarrufida bo'lgan. Bundan tashqari SHaybon ulusga hukmronlik qilish huquqini qachon va kimdan olganligi ham aniq ma'lum emas. Juvayniy, Rashididdin va boshqa qadimgi mualliflar bu haqda hech qanday ma'lumot qoldirmaganlar. Mahmud ibn Valining risolasida va Abulg'ozixonning yuqorida eslatilgan asarida ba'zi ma'lumotlar bor. Ikkala asar ham XVII asrning o'rtalarida yozilgan va agar ularga ishonilsa, SHaybon bul mulkni Botuxondan 1238 yili olgan.

Manba'larda ma'luotlar yo'q bo'lgani uchun SHaybon ulusi siyosiy tarixining to XV asrning 20-yillarigacha bo'lgan davri bizga deyarli noma'lum. Mahmud ibn Vali va Abulg'ozixonlar SHaybondan keyin ulusga hukmronlik qilgan xonlarning nomlarini yozib qoldirganlar, xolos. Ular: Bahodirxon, Jo'chi Bo'kaxon, Badoqulxon, Ming Temur, Fo'lod (Po'lod) xonlardir. Abulg'ozining aytishicha, Po'loddan keyin uning o'g'illari Ibrohim va Arabshoh otasining mulk va davlatini bo'lib olishgan. Ibrohimning vafotidan so'ng, taxtni uning kenja o'g'li, Abulxayrxonning otasi Dvlat SHayx o'g'lon egalladi. Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga qaraganda, ulus bu paytda aniqrog'i Davlat SHayx o'g'lonning vafotidan keyin Xoji Tarxon va Volga quyi oqimining hukmronlari To'qay Temur avlodi tasarrufiga o'tdi. XIII-XIV asrlardagi SHaybon ulusi haqida shu ma'lumotlar mavjud.

XV asrning 20-yillarida SHaybon ulusida bir necha mustaqil xonlar hukmronlik qilganlar. 1425 yilda bo'lib o'tgan voqealarga qaraganda, bu xonlardan biri Jumaduxxon mang'it ulusi bilan yonma-yon yerda hukmronlik qilgan. Bu xonning ulusi Orol dengizining shimoli, Sarisuv va emba daryolari o'rtasidagi yerlarda bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. So'fi o'g'lon taxtdan oliy mansabdor zodagonlar tomonidan ag'darilib, o'rniga o'g'li Jumadux

o'g'lon o'tkazilgan edi. Uning shajarasida "1425-1426 yili uning otasi tirik bo'lishiga qaramay, zodagonlar jamoasi uni davlat taxtiga o'tkazdilar", deb raqam etilgan. SHu munosabat bilan Mahmud ibn Valining Davlat SHayx o'g'lonning vafotidan keyin SHaybon ulusida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketgani haqidagi bergan ma'lumoti diqqatga sozovordir. Natijada uning kenja o'g'li Abulxayrxon taxtdan ayrilib, SHaybon ulusida hokimiyatni avval So'fi o'g'lon, so'ngra uning o'g'li Jumaduxon egalladilar. Maxmud ibn Vali bunday deb yozadi: "Saodatmand shahzoda balog'atga yetmaganligidan va uning tole' yulduzi tulu' etmog'i xali bir necha kunga uzoq bo'lgani uchun shayboniy sultonlaridan kitoblarda YUmaduq deb yurituvchi Jumaduxon ibn So'fi o'g'lon hokimlik dastining yengini shimarib, makr ilgini ishga solib, taxt vorisining (Abulxayrxonning) ishini mushkul qildi va shunday qilib (uning yo'liga) kazzoblik to'rlarini tashlab, qarindoshlar ham ashoyir va ba'zi askarlarning qalblarini rom qildi". Abulxayrxon hokimiyat qo'lidan ketganligini ko'rib, boshqalar katori Jumaduxon hokimiyatini tan oldi. shaybon ulusi mustaqil hukmronlik qilgan yana bir xon Mahmud xo'ja edi. U yuqorida eslatib o'tilgan Koonbekning o'g'li bo'lib, XV asr boshlarida, o'z davrining eng mashhur podshohlaridan biri hisoblanardi.

1.3. Sirdaryo havzasi o'zbeklar davlati ijtimoiy, siyosiy hayot.

YUqorida SHaybon ulusida XV asr boshlarida bir necha mustaqil: Jumaduqxon, Mahmudxo'ja uluslari, burqut qabilalarining yerlari va mang'it ulusi mavjud bo'lganligi haqida aytilgan edi. Manba'larda bu o'lkalarning ichki hayoti va ularning o'zaro aloqalari haqida ma'lumotlar yo'q. Ammo ayrim uzuq-yuluq ma'lumotlarga qaraganda ular orasida doimo shafqatsiz va uzluksiz kurash bo'lgan. Mahmud ibn Valining so'zlariga qaraganda, hokimiyatni Jumaduqxon egallagandan so'ng tez orada SHaybon ulusida ichki janjallar boshlangan.

XV asrning 20-yillaridagi shayboniylarning barcha uluslarida o'zaro janjallarga turtki bo'lgan tug'yon, mang'it ulusida ham bo'lgan edi. Jumaduqxon mang'it ulusidagi qo'zg'olonchilarga qarshi yurish qildi, ammo ko'p qon to'kilgan jangda mag'lubiyatga uchradi. Ko'p sarkardalari, shu qatori uning o'zi ham asir olindilar va mang'itlar boshliqlarining qarorlariga binoan, qatl etildilar. Jumaduqxon qo'shinining javong'origa qo'mondonlik qilayotgan yosh Abulxayr ham o'shanda asir olindi. Ammo, uning hayoti saqlab qolindigina emas, balki hokimiyat tepasiga chiqishga yordam ham berdilar, bunda ayniqsa Sarig' Usmon va Olasha bahodir jonbozlik ko'rsatishdi.

Ma'lumki, XIV asr oxiri va XV asr davomida Dashti Qipchoqning siyosiy hayotida mang'it ko'chmanchi feodallari katta rol uynaganlar. SHunday mang'it feodallaridan biri Idikubiy (Edigey) 15 yil davomida Oltin O'rdaning butun hokimiyatini o'z qo'lida ushlab turardi. Uning o'g'illari esa

ayrim viloyatlarga hukmronlik qilishar va Jo'chi xonlarning davlatida muhim mansablarni egallagan edilar. Masalan, Idikuning katta akasi Isabek To'xtamishning hukmronlik davrida uning lashkarboshilaridan bo'lgan edi. Fo'lodxon davrida esa amirul-umaro (amirlarning amiri) mansabida bo'lgan. XVI asrning boshlarida Dashti Qipchoqning siyosiy hayotida Idikuning avlodlari Vaqqosbiy, Muso mirzo, YOmg'urchi va boshqalar katta rol o'ynaganlar. Mang'it amirlari ham boshqa ko'chmanchi qabilalarning boshliqlari ham ularning siyosatini olib boradigan chingiziylardan taxtga o'tkazishar edi, agar ularning siyosatini olib bormasalar, taxtdan ag'darib tashlardilar.

Abulxayrxon bo'lib ko'tarilgandan so'ng ikki yil o'tgach, o'zbeklarning Xorazmga yurishlari arafasida Idikuning nabirasi, mang'itlarning yo'lboshchisi Vaqqosbiy Abulxayrxon bilan yaqinlashdi. "Abulxayr va no'g'oy (nag'ay)larning boshlig'i Vaqqosning yaqinlashuvlarini, - deb yozgan edi P.P.Ivanov – so'ngisining no'g'ay ulusidagi muxoliflariga qarshi kurashda o'ziga o'zbeklar tomonidan tarafdor topishiga intilish bilan tushuntirish mumkin". Vaqqosbiy bir tomndan o'zidan oldin o'tgan G'ozibiyning ko'rgiligi o'zining ham boshiga tushishidan hadiksirasa, boshqa tomondan mang'itlarga qo'shni bo'lgan dasht xoni Mustafodan qo'r qar edi.

Olasha bahodir va uning aymog'ining mo''tabarli odamlari yordamida Abulxayrxon bir dasta jangovar yigitlarini to'pladi-da 1428 yilning bahorida o'z ulusiga keldi. Bu yerda qiyot, mang'it, do'rmon, qushchi, o'toji, nayman, uqarash-nayman, tuban, toymas, jot, xitoy, uyg'ur, qarluq, ushun (usun), qarlaut, ichki, mutan-ming, tang'ut, qo'ng'irot va boshqa qabilalarning boshliqlari, ruhoniylarning vakillari: sayyid Qulmuhammad, Qora Sayyidlarning hamda sultonlar va o'g'lonlarning ishtirokida uni xon deb e'lon qilishda. Ko'rinib turganidek, Abulxayrxonni Dashti Qipchoqdagi

ko'chmanchi turk-mo'g'ul aslzodalari ko'pchiligi qo'llab-quvvatlaganlar. Mahmud ibn Valining aytishicha, o'shanda uni qabilalar va urug'larning ikki yuzga yaqin vakillari qo'llaganlar. Qabilalar va uluslarning bir-birlarini talash bilan tugaydigan uzluksiz urushlari hamda ko'chmanchilarning keng ommasi g'alayonlari bo'lishi mumkinligidan cho'chigan zodagonlar qudratli yo'lboshchi – xon atrofida jipslashishiga va mehnatkash ommani itoatda saqlab turishiga qodir bo'lgan davlat tuzumini barpo etishga majbur bo'ldi. Bularning hammasi ko'chmanchi o'zbeklarning Abulxayrxon boshchiligidagi davlati tuzilishiga olib keldi.

Ko'chmanchi o'zbeklar davlati Jo'chi ulusining xarobalarida vujudga keldi. Bu davlat ko'chmanchilarning birinchi davlat tuzumi bo'lmay, xuddi xunlar, turklar va Markaziy Osiyoning boshqa ko'chmanchi xalqlari davlatlariga o'xshash davlatlarning faqat qayta tiklanishi yoki yangi bir ko'rinishi edi, xolos.

Qisqai, ko'chmanchi o'zbeklarning davlati ham, ko'chmanchilarning boshqa xuddi shunday davlatlari kabi ko'chmanchilar orasidagi sinfiy munosabatlar ancha rivojlangan paytda, tarixiy ehtiyoj natijasida vujudga keldi.

Abulxayrxon o'z oldiga faqat SHaybon ulusini birlashtirishgina emas, balki qachonlardir Oltin O'rdaga tobe' bo'lgan viloyatlar, ya'ni O'rol daryosining sharq tomonidagi yerlarini ham o'z hokimiyatiga albatta buysundirishni maqsad qilib qo'ygan.

O'sha, 1428-29 yili Turaga harbiy yurish bo'ldi. SHahar hokimlari Adabbek, Kepakxo'ja va shahar boyonlari qarshiliksiz Abulxayrxonga bo'ysunishdi. Xutba o'qilib, Abulxayrxon nomidan tangalar zarb etilgandan so'ng, Tura shayboniylar davlatining poytaxti bo'lib qoldi va bu xolat to 1446 yilgacha davom etdi.

Abulxayrxonning dastlabki zafarlari haqidagi xabar Dashti Qipchoqqa juda tez tarqaldi va Mas'udning hikoya qilishiga qaraganda, uning huzuriga Tura shahriga har tarafdin sultonlar, o'g'lonlar hamda bir qator qabilalarning boshliqlari kela boshladilar. SHu qatori Xizrxonning o'g'li Arabshohning avlodi bo'lmish, to umrining oxirigacha Abulxayrxonga sodiq qolgan, uning qo'shinlariga qo'mondonlik qilgan Baxtiyor sulton ham Abulxayrxonning huzuriga keldi.

Kelgusi yili Abulxayrxon yuqorida nomi eslatilgan Mahmudxo'jaga qarshi yurish qildi va uni Toboldaryosi bo'yida tor-mor etdi. Mahmudxo'ja asir olinib, Abulxayrxonning amri bilan qatl etildi. Uning o'rdasi talon-taroj qilindi. Abulxayrxon o'z ulusiga Mahmudxo'janing ulusini qo'shib olib Turaga, poytaxtga qaytdi. Juda qisqa vaqt ichida Abulxayrxon SHaybon ulusining hammasini birlashtirishga va u yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. "Bahrul-asror" muallifining gapiga qaraganda, Abulxayrxon o'sha paytlari Oltin o'rdada hukmronlik qilayotgan To'qay Temurning avlodlariga bo'ysunmay, o'z davlatining mustaqilligini e'lon qildi. SHu asarda quyidagi qiziq ma'lumotlar berilgan: Temurxonning o'g'li To'qay-temuriyzoda Muhammadxon ajdodlarining Saroychiqdagi taxtiga o'tirgandan so'ng barcha uluslarga choparlar yuborib, uluslarning hokimlarini qurultoyga kelishga taklif etdi. Bu qurultoyda yosh Abulxayrxon ham qatnashdi. Ammo bu qurultoyda To'qay –temurlar va shayboniylar ittifoqining buzilishiga sabab qo'shin to'plash bahonasida Abulxayrxon va boshqa shayboniylarning Saroychiqdan ketib qolganlari bo'ldi. Tez orada Muhammadxon vafot etdi shundan so'ng To'qay temurlar va shayboniylarning qadimiy birligi ham yo'q bo'lib ketdi.

Ammo, SHaybon ulusining so'nggi hukmdorlari ma'lum bir darajada To'qay-temur avlodlariga mute' edilar.

1431-1432 yili ko'chmanchi o'zbeklarning Xorazmga katta yurishi bo'ldi. "Tavorixi Abulxayrxoniy"ning ta'kidlashicha, Abulxayrxonning bu yurishdan oldiga qo'ygan maqsadi Xorazmni zabt etish edi.

Ma'lumki ko'chmanchilarning haddan tashqari ulkan siyosiy birlashmalari hamma vaqt tashqi istilolarga olib kelgan, chunki ko'chmanchi zodagonlar uchun urush faqat boylik orttirish vositasi bo'lib qolmay, qabila va ulus ichidagi ijtimoiy ziddiyatlarni ham yumshatishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, K.Marks aytganiday, ko'chmanchilarning mol boqishlari uchun "bepoyon, kimsasiz xududlar, yaylovlar bo'lishi zarur. Bu zaruriy xududlar avvalombor, o'troq yer egalarini ko'chmanchilar tomonidan kisib chiqarilishlari orqali, ba'zan esa obod yerlarni zo'rlik bilan tortib olishlari hisobiga vujudga kelar edi". Nazarimizda, ko'chmanchi o'zbeklarning Xorazmga yurishlaridan maqsad faqatgina u yerning aholisini talash bo'lgan, deb tushunish xato bo'lur edi.

Xorazmning temuriy hukmdori amir Ibrohim va uning qo'shini ko'chmanchi o'zbeklarga yetarli qarshilik ko'rsatmadilar, natijada ular osongina Xorazmning poytaxti Urganchni qo'lga kiritdilar. "Bahr ul-asror"da quyidagi qiziq ma'lumot bor: Abulxayrxon Urganchni qamal qilgach, amir Ibrohimga elchilar yubordi va Abulxayrxonning so'ziga qaraganda, CHingizxon davridan boshlab Jo'chixon va uning avlodlariga qarashli bo'lgan mamlakatni ham shu shaharni topshirishni talab qildi. Bu dalil ham, biz yuqorida ko'chmanchi o'zbeklar Xorazmni bosib olishi uchun yurish qilganlar deb bildirgan fikrimizni ma'lum darajada tasdiqlaydi. Voqelarning keyingi rivojiga qaraganda, Xorazmning a'yonlari va ruhoniylar Abulxayrxon qo'ygan shartlarni qabul qilishga amir Ibrohimni majbur qilishgan.

Xorazm va uning poytaxti talon-taroj qilindi. Mas'udning xabar berishiga qaraganda, xon Urganchni olgandan keyin "oldingi hukmdorlar

ko'p mehnat sarf qilib to'plagan xazinalarni ochib qo'yishlarini va eshik oldida ikki obro'li amirning kuzatib o'tirishini, qo'mondonlar, xonga yaqinlar hamda oddiy navkarlar xazinadan bimalol ko'tarib imkon qadar olib chiqishlariga ruxsat berdi. Barcha navkarlar xon amiriga muvofiq (xazinaga) kirishib, har biri ko'targanicha qimmatbaxo narsalardan olib chiqib ketar edilar".

Mas'ud Urganchda xon uyushtirgan olimlar, shayxlar va shoirlarning majlislari haqida hikoya qiladi. SHunday majlislardan birida bir aziz inson xonga qasida hadya qildi. Xon shu majlisda hozir bo'lgan Kamoliddin Xusayn Xorazmiydan shu qaidaga sharh yozib berishini iltimos qildi, shayx xon iltimosini bajardi. SHarh turk tilida yozilgan bo'lib, Kamoliddin Xusayn Xorazmiy unga "Kashy al-xudo" deb sarlavxa qo'ygan. Bu sharhdan tashqari u Abulxayrxonga bag'ishlangan qasida ham yozgan. Bu dalil Abulxayrxonning Xorazmdagi ahli ruhoniyyat va ayonlar o'rtasida o'ziga tarafdorlar istagani hamda boy, madaniy o'lkani o'z tasarrufida saqlab qolishga intilganini ko'rsatadi.

Ammo, ko'chmanchi o'zbeklar tez orada Xorazmni tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Abulxayrxon hayotnomasining muallifi buni Xorazmning "bema'ni ob-havosi" bilan bog'liq deb tushuntiradi. Al-Maqriziy bunday deb yozadi: "833/1429-1430 yillarda va undan avvalgi yili Saroy yerlarida va Qipchoq cho'llarida qattiq qurg'oqchilik hamda juda keng tarqalgan o'lat oqibatida nihoyatda ko'p xalq nobud bo'ldi, ulardan faqat ba'zi uluslarigina o'z chorvalari bilan sog' qoldilar" A.YU.YAkubovskiy va A.A.Semyonovlar shunday talqinni quvvatlaydilar. Abdurazzov Samarqandiyning ma'lumotiga ko'ra, ko'chmanchi o'zbeklarning Xorazmdan ko'chganlariga sabab SHohruhning ularga qarshi katta qo'shin yuborgani bo'lgan. Abdurazzoq Samarqandiyning bu fikrini P.P.Ivanov to'g'ri deb hisoblaydi. Abulxayrxonni Xorazmdan ketishga majbur etgan va Maqriziy, Abdurazzoq Samarqandiylar

aytib o'tgan sabablardan tashqari, boshqa sabablar ham bor. Ma'lumki, Abulxayrxondan orqavorotda Kichik Muhammadning o'g'illari – o'sha paytda Orol dengizi bo'yidagi dashtlarda ko'chib yuruvchi va Hoji Tarxon (Astraxon) o'z tasarruflarida bo'lgan Mahmudxon va Ahmadxonlar ancha faol harakatga tushib qolgan edilar. Ular birlashib, Abulxayrxon ulusiga bostirib borish xavfini solib turardilar. Nazarimizda, ko'chmanchi o'zbeklarning Xorazmdan ketishlarining sabablaridan biri shu voqealar ham bo'lsa kerak.

Abulxayrxon Xorazmdan qaytib kelgach, astoydil tayyorgarlik ko'rib, aka-ukalar: Ahmadjon va Mahmudxonlarga qarshi yurish qildi. Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga qaraganda, aka-ukalar bilan otalari Kichik Muhammad, aka-uka Javoq sulton va Boshyoq sultonlar itifoqda edilar, bu Abulxayrxonning dushmanlari qudratidan darak beradi. Ular orasidagi jangEgritepa degan yerda bo'ldi. Mas'ud ibn Qo'hisoniyning xabar berishicha, qon ko'p to'kilgan jangda Abulxayrxon ular ustidan to'la g'alaba qozongan va ularning qarorgohi O'rda bozorni olgan. Ammo, bizning fikrimizcha, o'shanda Maxmudxon va Ahmadxonlar butunlay tor-mor bo'lmaganlar, katta talofatlar ko'rgan bo'lsalar ham Astraxon tomoniga qochib borib, uning qal'a-devorlari ortida jon saqlab qolgan bo'lsalar kerak. g'oliblarga katta o'lja: chorva, o'tovlar va boshqa boyliklar tegdi, ular ko'p asir oldilar. Abulxayrxonning nomi bilan xutba o'qitilib, tanga zarb qilingandan keyin, "O'rda bozor aholisi xonning soyai davlatidan bahramand bo'ldi", ya'ni O'rda bozor va Ahmadxon ulusi Abulxayrxon mulkiga qo'shib olindi. O'rda bozorning o'zi qayerda joylashganlagini aniqlab bo'lmadi. Xonlarning qarorgohlari odatda shunday deb atalar edi. Xonlarning bir necha o'rda bozorlari ham bo'lgan. Masalan, Mamay "xo'ja ko'rsinga" qo'ygan xonlar Abdulloh hamda Muhammad Buloqlarda, rus solnomachisining ma'lumotlariga qaraganda, bir necha o'rda bozorlar bo'lgan. Bu yerda so'z

Mas'ud ibn Usmon Qo'histoniy aytgan, bir vaqtlar Botuxonning bosh qarorgohi bo'lgan O'rda bozor haqida boradi.

1750 yili Orenburg general-gubernatori tomonidan Qorasuv daryosi bo'yidagi qirg'iz-qaysaq o'rdasiga yuborilgan muhandis-podporuchik Regelman daryoning quyilish joyidan uncha uzoq bo'lmagan yerda "muhim ahamiyatga ega bo'lgan inshootlarning rasmini chizib olgan", aholining gapiga qaraganda, bu yerda "qadim zamonlarda shahar bo'lgan" P.I.Richkov, bu yerda xon qarorgohi bo'lgan, deb taxmin qiladi va qarorgohdan to Orenburggacha bo'lgan masofani 150 chaqirim hisob qiladi. ammo Botuxonning O'rda bozori bo'lganmi, yo'qmi, aytish qiyin.

SHu paytda Oltin O'rdada qanday voqealar ro'y bermoqda edi? Al-Ayniy, 1428-1429 yillari Ulug' Muhammad yana Qrim va Dashti Qipchoqni, ya'ni Oltin O'rdani egallab oldi, deb yozadi. Rus solnomachisi al-Ayniyning bu so'zlarni tasdiqlaydi. Masalan, "Nikon solnomasi"da 6939 (1429) yilga taaluqli quyidagi voqea yozilgan: "...Buyuk Knyaz Vasiliy Vasilevich va uning amakisi knyaz YUriy Dmitriyevich Maskovning buyuk knyajnasidan hol-ahvol so'rashdilar va O'rdaga, podsho Mahmetning huzuriga borishni xohlashdi... O'shanda podshoh Mahmet buyuk knyaz Vasiliy Vasilevichga... Maskov buyuk knyazligini, YUriy dmitriyevichga esa Dmitrev shahrini barcha viloyatlari bilan berdi va ketishga ruxsat etdi".

Oltin O'rda taxtiga eng kuchli talabgor Kichik Muhammad edi. O'sha, 6939 yil bo'yicha rus solnomachisi "o'sha paytda Mahmet ustiga podshoh Kichik-Ahmet keldi", deb xabar beradi. Ammo kichik Muhammad uni yengolmadi, bu haqda "Novgorod solnomasi" 1433 yil bo'yicha quyidagi ma'lumotni beradi: "...butun rus yerlarining knyazligini buyuk knyaz Vasiliy Vasilevichga bergan podshoh Mahmet...".

SHunday qilib, 1438 yilgacha Oltin O'rda hukmronligi Ulug' Muhammadning qo'lida qolgan bo'lib, u bilan Kichik Muhammad orasida

oliy hukmdorlik uchun kuchli kurash borar edi. 1438 yildagina Kichik Muhammadni yengaolmagan va Saroyini bosib olgan. “Nikon solnomasi” da 1441 yil bo’yicha “shu kuzning o’zida o’z ukasi Katta o’rda podshosi Kichik Ahmetdan qochib, podshoh Ulug’ Mahmet Katta o’rdadan Belev shahriga keldi va Belevda to’xtadi” deb ma’lumot beriladi.

Kichik Muhammadning hukmronligi davrida ham Oltin O’rdada, zodagonlarning uzluksiz, qonli kurashlari davom etgan. Kurashlarda mang’itlar ham ishtirok etgan ko’rinadilar. Bu haqda solnomachi quyidagilarni xabar qiladi: “O’sha kuzning o’zida Katta o’rdaning podshosi Mahmet o’rdaning katta knyazi Mansupni qatl etdi va o’shanda ko’p tatarlar O’rdada ta’zirlarini yedilar”.

XV asr 40-yillarining boshida o’zaro kurashlar faqat Katta O’rdadagina emas, Jo’chiylarning boshqa ayrim uluslarida ham kuchayib ketganligini aytib o’tish kerak. solnomachining ta’kidlashicha, “boshqa o’rdalarda ham g’alayonlar boshlandi, bu g’alayonlar kuchayib ketib, qabilalar orasida o’zaro janglar bo’ldi”. Misol uchun shayboniy Said Ahmad va uning ulusini olamiz. XV asrning 40 yillarida Oltin O’rdada ro’y bergan voqelarga qaraganda, uning ulusi Ukrainadagi buyuk Litva knyazining yer mulklari bilan qo’shni bo’lgan. Said Ahmad unga vaqt-vaqti bilan bosqinlar qilib turgan. O’sha paytlarda u Mamayning sobiq O’rdasida hukmron bo’lib turgandi. Bu ulusda ham g’alayonlar va zodagonlarning o’zaro janglari bo’lar edi. Xususan 1441 yil bo’yicha solnomachi: “o’sha yozning o’zida buyuk knyazga, uning ustiga Said Ahmad O’rdasidan shaxzoda Mozavsha kelayotgani va unga qarshi Kolomna toomnga yurgani haqida xabar keldi”, deb ma’lumot beradi. Solnomada aytilishiga qaraganda, tatarlar o’shanda Kolomna qasabasini yoqib, atrofdagi qishloqlarni talab, dashtga qaytib ketganlar. Bu yerda so’z yuritilayotgan Mozavsha esa, 1446 yilda Ryazan atrofida paydo bo’lgan va Listan daryosi bo’yida o’ldirilgan Mustaf o bo’lsa kerak.

1451 yili Said Ahmad yengilib, o'z ulusidan qochib ketdi. Uning muxolifi va uni jangda yenggan g'olibi kim bo'lganligi to'g'risida manbalarda ma'lumot yo'q. Oltin O'rdada keyinchalik ro'y bergan voqealar Ahmadxon bo'lsa kerak, degan fikr uyg'otadi. O'shanda Said Ahmad Kolomna atrofida paydo bo'lib, uning kasabasiga o't qo'ygan va ko'pgina asirlarni olib qaytib kelgan edi. Ulug' Muhammadning o'g'li, o'sha paytlari ulug' rus knyazining xizmatida bo'lgan shaxzoda Qosim unga qarshi Zvenigoroddan chiqib Paxra daryosi bo'yida uni tor-mor etdi.

II-BOB. SHAYBON O'ZBEKLARINING TEMURIYLAR BILAN O'ZARO ALOQALARI.

2.1. Ko'chmanchi o'zbeklarningidavlat boshqaruv tizimi.

Abulxayrxon erishgan g'alabalari natijasida ham ko'chmanchi, ham o'troq aholi yashaydigan ko'p yerlar ustidan o'z hukmdorligini o'rnatdi. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining chegaralari shimolda – Turagacha, janubda - Xorazmning g'arbiy qismi bilan Orol dengizi va Sirdaryoning quyi oqimigacha yetib borardi. SHarqiy chegara Savrondan o'tar, g'arbda esa Tobol va YOyiq (O'ral) daryolari chegara edi. Bu davlat hozirgi Qozog'iston,

G'arbiy Sibiriyaoning ko'p qismini va Xorazmning janubi-g'arbiy qismini o'z ichiga olar edi.

Bu keng xududda shaharlar va sun'iy sug'orishga asoslangan ziroatchilik madaniyati rivojlangan vodiylar ko'p edi.

Hozirgi janubiy Qozog'iston yerlarida, Sirdaryoning o'rta oqimida biz o'rganayotgan davrlarda YAssi, O'tror, Sig'noq, Savron, Arkuk, O'zgand, Oqqo'rg'on va boshqa yirik shaharlar bo'lgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmida ham bu yerlarda o'ndan ortiq shahar bo'lgan va ular haqida P.I. Richkovning asarida ba'zi ma'lumotlarni topish mumkin. "Avval, - deydi u, - ushbu chet o'lkada o'ttiztagacha shahar mavjud bo'lgan. Sirdaryoning ikkala qirg'og'ida Savrondan to Yangikentgacha bo'lgan yerlarda joylashgan bu shaharlarda, IX-X asrlardayoq, o'g'uzlar davrida hunarmandchilik va savdo rivoj topgan edi. Bu shaharlar juda qadim zamonlardan to XVII asrgacha Dashti Qipchoq va Movarounnahrning ko'chmanchi va o'troq aholisi uchun savdo markazi bo'lib kelgan. Sirdaryo havzasi esa, qadim zamonlardan asosan o'troq aholining yerlari bo'lgan". A.P.Chuloshnikov yozganidek, hatto XIX asrda ham "shimoliy Turkistondan to O'rta O'rolgacha, Irtish hamda Ishim daryolarining boshlanish yerlarigacha bo'lgan joylarda o'troq dunyo o'chog'lari mavjud edi. Ular o'sha paytlarda O'rol viloyatida ham, To'rg'ay viloyatida ham, Oqmulla viloyatida ham uchrar edilar. Bu yerlarning ko'p joylarida qadimdan dalalarni sug'orish ekin o'stirishga asoslangan dehqonchilik bo'lgan. O'tgan asrning boshlarida bu shaharlarning ba'zilar atrofida "ariq, anhorlarning o'zanlari va qadimiy dalalarning ish\zlari" borligi sug'orishga asoslangan ziroatchilikning mavjud bo'lganligidan darak beradi. Biz o'rganayotgan davrda hozirgi janubiy va markaziy Qozog'iston maydonida shaharlar va dehqonchilik vohalari borligini qadimshunoslar, sayyohlarning ishlari va olib borgan kuzatishlari ham tasdiqlaydi. Sirdaryo va CHu vodiylaridagi qozoq ovullariga 1874 yil

kelgan G.S. Zagryajskiy bu yerlardagi aholining turmushi haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. U keltirgan dalilarga qaraganda, Qoratog' va Sirdaryo, Aris va Turkiston oralig'ida sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik qilingan. Bu yerlar Qoratog'dan oqib tushadigan Bugun, CHayon, Bo'rjar va Iqon daryolarining suvi bilan sug'orilar edi. Turkiston shahrining ortida o'troq hayot kechirish va dehqonchilik uchun qulay yerlar bo'lgan. 10-15 km. kenglikdagi bu ikki voha Julok tomonga kengayib borar edi. "Temanariq bekatidan, deb yozida G.Zagryajskiy, - ikkita anhor boshlanadi, ularga bekatdan uch chaqirim quyiroqdan boshlanuvchi uchinchi anhor kelib qo'shiladi; bu uchta anhor nariroqqa, qadimgi Sunoq-ota qishlog'ining shu paytgacha ko'chalar, bog'lar, polizlar va bedazorlarning izi saqlanib qolgan xarobalariga yetib boruvchi ariqchalarga bo'linib ketadi. Bu ariqchalar tarmog'i ikki hosildor voha orasini butunlay egallagan. Ariqlar hozirgacha juda yaxshi saqlanib qolgan".

Sirdaryoning chap qirg'og'ida, har qalay daryo bo'yi va Oqqo'rg'on, Arkuk, O'zgand va boshqa o'rta asr shaharlarining atroflarida ham sug'orishga asoslangan dehqonchilik bo'lgan. Ro'zbexon Arkuk, O'Zgand va ularning atroflarini tasvirlar ekan, bu yerlarga yaxshi oro – ishlov berilganligini yozadi. XX asrning boshlarida Sirdaryoning chap qirg'og'ida joylashgan shaharlarning xarobalarini tekshirish uchun kelgan V.A.Kallaur, "anchagina keng maydonni egallagan qadimiy sug'orish tarmog'ining izlarini" ko'rgan. SHaharlar va o'troq aholi yashaydigan kasabalar Qoratog' yon bag'irlarida ham Qoratol, CHu va Talas daryolarining vodiylarida ham bor edi. Qoratog' vohasida ham kasabalar ko'p bo'lgan, ularning oarsida eng kattalari ulug' ipak yo'lida joylashgan qadimiy Qumkent, Savdokent va Suzoqlardir. Bu shaharlar "o'rta asrlarda ko'chmanchilarning ham, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholining ham maxsulot sotishlari uchun asosiy savdo markazlari bo'lgan". SHahar – kasabalardan bizning

davrimizgacha faqat Qoratog'ning shimoliy yon bag'rida joylashgan Suzoq saqlanib qolgan. Qadimshunoslar Suzoqning qadimiy va yangi qismlarini tekshirib, ko'pdan-ko'p karvonsaroylar, do'konlar va kosiblarning ustaxonalarini topishdi. Bu ustaxonalarda hunarmandlar, zargarlar buyumlari, temir asboblari, charm buyumlar va xo'jalikka zarur bo'lgan turli narsalarni ishlab chiqarar edilar. Toldiqo'rg'on shaharidagi "Qozog'iston) qand ishlab chiqaruvchi korxona yerida qadimshunoslar qadimiy yekki-o'g'uz shahrining izlarini topdilar. Bu yerga o'z vaqtida Rubruk kelib, uni katta va yaxshi shahar deb tasvirlagan edi. Talas vodiysida ham o'troq aholi yashagan. Bu yerda Tuymakent, Jikil (CHigil), Bahlu va boshqa shaharlar bo'lgan. Dashti Qipchoqdan Sarisuv va Qoratog' vohasi orqali o'tgan Rubruk bunday deb yozgan eid: "Ettinchi kun janub tomonidan bizga juda yuksak tog'lar ko'rindi va biz tog' suvi bilan sug'oriladigan pasttekislikka kirib keldik, u yerda yaxshi ishlov berilgan dalalarni topdik". So'ngra u Qoratol va Ko'ksuv (Balxashda; Muhammad Xaydarda – Ko'kcha dengiz) daryolari vodiysiga bordi, u yerlar ham "tog'lardan oqib tushadigan suvlar bilan juda yaxshi sug'orilar edi". Qadim zamonlarda o'troq aholi yashovchi shahar – kasabalar hozirgi Qozog'istonning faqat janubiy va sharqiy qismlaridagina emas, balki jumhuriyatning ancha shimoliy tomonlarida ham bo'lganligini qadimshunoslar isbotladilar. Bu qasabalar asosan "daryolarning vodiylarida, ko'llarning bo'yida, sahro va yarim sahrolardagi (cho'llarning – B.A.) saqlanib qolgan vohalarda bo'lgan". Sarisuvning quyi oqimidan sakkiz km. naribroqda joylashgan, bir vaqtlar katta shahar bo'lgan CHo'ponotaning xarobalari XVIII asrning oxirlarida ham bor edi. Bu yerda P.I.Richkov beshta nurab qolgan masjidlar va boshqa binolarning xarobalari topdi. O'sha yerli aholi unga "Bu yerda qaysi bir no'g'ay xonning turar joyi bor edi", deyishgan. Telegul qo'lidan bir kunlik yo'l narida, o'sha Sarisuv daryosining qirg'oq'ida yana boshqa bir katta shahar – Bilgan ona shahri bo'lgan, uning

xarobalari uzunligi olti km., kengligi bir km.cha bo'lgan. Nur daryosining quyi oqimidan 30 km. narida Tatag'ay shahri bo'lgan, u yerda P.I.Richkov "qayerga o'xshash to'rtburchak shakladgi plitalarni" ko'rgan, ular "shunday katta ediki, aylanasi uch yuz sarjin (600 m) kelardi... Bu yerda yarim xarobaga aylangan machit va toshdan qurilgan ko'p binolarning xarobalari bor edi".

Toshdan qurilgan ulkan binolarning xarobalari Markaziy Qozog'istondagi Qorasuvning quyilish joyiga yaqin joydan 1750 yili topilgan. O'rta Osiyolik tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy Abdullohdan II ming Ulug'tog'ga qilgan harbiy yurishini tasvirlar ekan, Kengir daryosining vodiysida joylashga Saroylik va Turaylik nomli shaharlarning va Saroylikka yaqin joydagi Jo'chixonning maqbarasini eslatib o'tadi. Qadimshunoslar Kengir va Sarisuv daryolari qirg'og'ida anchagina me'morchilik yodgorliklarini topishdi.

Anhorlar bilan dehqonchilikka raydigan yerlarni sug'orish mumkin bo'lmaganda suv ko'targich "mashinalar" – chig'ir (charxpalak)lar qurishardi. Qadimshunoslar bunday chig'irlarning qoldiqlarini Markaziy Qozoqg'istonning ko'p joylaridan topishgan. Ular Qozog'iston muzofotida bunday qurilmalardan qadim zamonlardan beri ishlatilib kelinishidan dalolat beradi. A.Levshin Sirdaryo va Irg'iz daryolarining quyi oqimlaridagi sug'orish tarmoqlari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Bu ma'lumotlar yerlarni sug'orishga asoslangan dehqonchilikning bu joylarda ham bo'lganidan darak beradi.

Bularning hammasi shaksiz, hozirgi Qozog'istondagi o'troq aholining qadim zamonlarda yuqori madaniyatli bo'lganligi bildiradi. Xullas, hozirgi Qozog'istonning maydonida qadimdan ko'chmanchilik bir qatorda, o'troqlik – dehqonchilik va shahar hayoti ham mavjud bo'lgan, deb xulosa chiqarsa bo'ladi. K.Marks 1853 yili 2 iyunda F.Engelsga yozgan maktubida "SHarq

qabilalarining hammasida ham, tarixning boshlanish paytidanoq, ularning o'troq qismi o'rtasida umumiy o'zaro davom ettiruvchi boshqa qismi o'rtasida umumiy o'zaro bog'liqlikni kuzatish mumkin", deb yozadi. Ma'lumki, Marksning qadimshunoslik dalillari, yozma yodgorliklar, sayyohlar va zamondoshlarning kuzatishlari bilan o'z tasdig'i topgan fikri ba'zi tarixnavis va itqisodchilar, masalan, V.F.SHaxmatov, S.E.Tulibekovlar tomonidan yetarli darajada inobatga olinmagan. Ular o'zlarining ba'zi asarlarida qadim zamonlarda hozirgi Qozog'iston yerlarida ko'chmanchilik bilan bir qatorda o'troqlik ham bo'lganligi haqiqda haqiqatni inkor etganlar. Ularning fikricha, hozirgi Qozog'istonning qadimiy aholisi o'troqlikni bilishmagan va bu yerda o'troqlikka o'tish jarayoni XIX asrning 30-yillaridan, ya'ni qozoq juzlarining Rusiyaga qo'shilganidan so'ng boshlangan. S.E.Tulibekovning yozishicha, go'yo faqat "shu paytdan boshlab rus davlati va rus aholisining bevosita ta'siri ostida qozoq juzlari va yirik urug' qabilaviy guruhlarining o'troqlikka o'tish jarayoni boshlandi". S.E.Tulibekovning faqat qozoqlarning XVIII asrdan boshlab o'troq bo'la boshlaganligi haqida fikri bahslidir. Ammo, markaziy va janubiy Qozog'iston shaharlari va shaharlar atrofida, daryolarning vodiylarida o'troq aholi yashaganligini nazarda tutmay bo'lmaydi. Ular qadim zamonlardan dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanganlari isbot qilingan va keng ilmiy jamoatchilikka ma'lum. SHu muallifning o'zi yana bunday deb yozadi: "O'zlarining mehnat faoliyatlari va turmush tarzlari bilan qadim zamonlardagi ko'chmanchilardan Turkiston o'lkasining Sirdaryo viloyatidagi ko'chmanchilar XIX asr oxirida ham farq qilar edilar". Fikrimizcha bu unchalik to'g'ri xulosa emas. Ko'chmanchilarning hayotlarida ulkan o'zgarishlar bo'lib turgan. Ularda chorvachilik rivojlana borgan, natural xo'jalikning tor doirasini buzib borgan sari ko'proq savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullana boshlaganlar. Agar qadim zamonlarda chorvaga jamoat egaligi

bo'lgan bo'lsa, feodalizm davriga kelib, hatto uning ibtidoiy shakllarida ham chorvaga shaxsiy egalik hukmronlik qilgani inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir. Oddiy ko'chmanchilarning o'z chorvalaridan ajraganlaridan so'ng o'troq hayot tarziga o'tishlari doimo ro'y berib turgan va buni S.E.Tulebekovning o'zi ham tan oladi. Rus elchisi V.Kobyakov 1659 yili Tavkaxon qarorgohidan qaytganidan keyin: "Turkiston shahri atrofida, Tovkaxon yerlarida bug'doy juda ko'p hosil beradi, shul bois bug'doy, arpa, tariq va donlarning kuzgi va lalmikorlarini sepadilar", deb yozgan. Bundan tashqari, bu zaminda jo'xori ham ekilgan. Ushbu dalillar markaziy va janubiy Qozog'istonda o'troqlik va dehqonchilik bo'lganligidan dalolat bermaydimi?

"Ko'chmanchilik turmush tarzi haqidagi tasavvurlar, deb yozgan edi S.P.Tolstov, bir tomondan qabilalarning nisbatan doimo harakatda bo'lishlari, ikkinchi tomondan esa ko'chmanchilik hayot tarzi bo'lgilari, xususan yarim ko'chmanchilik, havzalardagi dehqonchilik rivojlanishi bilan paydo bo'ladi".

Qadim zamonlarda tarixiy voqelarga boy bo'lgan hozirgi Qozog'istonning yerlari qadimshunoslik nuqtai nazaridan juda kam o'rganilgan. Hech bo'lmasa Sirdaryo, Sarisuv, Kengir, Ishim va boshqa daryolarning ikki qirg'oqlarida sinchkov qadimshunoslik tadqiqotlarini olib borish, hozircha kam o'rganilgan va Qozog'iston hamda O'rta Osiyo tarixining tadqiqotchilari o'rtasida ko'p tortishuvlarga sabab bo'ladigan anchagina muammolarga javob topish uchun yo'l ochib berardi.

YUqorida aytib o'tilgan, biz o'rganayotgan davr o'rta asrdagi Qozog'iston yerlarida shaharlar, dehqonchilik rivojlangan vohalar va sug'orish tarmoqlarining mavjudligi, u yerlarda ko'chmanchilik bilan bir qatorda o'troq ham bo'lgani uchun odamlarning xo'jalik faoliyatlari turlicha edi, deb aytishga imkoniyat beradi. O'sha davrda ba'zilar ko'chmanchilik hayot tarzida yashab, yaylovlarda chorvachilik, ba'zilar esa sharoitga qarab

dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish, yana boshqalari – hunarmandchilik va savdo ishlari bilan shug'ullanganlar. Dehqonlar ham, hunarmandlar ham, savdogarlar ham u yoki bu darajada o'troq hayot kechirishar edi.

YUqorida biz o'troqlik va dehqonchilik mavjud bo'lgan bir qator vohalarni ko'rsatib o'tdik. Darhaqiqat, janubiy, qisman markaziy Qozog'istonda dehqonchilik ancha durust rivojlangan, boshqa joylarda esa, aholi yarim ko'chmanchi edi. Sayyohlarning ma'lumotlariga qaraganda, ko'chmanchilarning ko'pchiligi dehqonchilikka ham aloqador bo'lgan. “Bu xalq doimo bir joydan boshqa joyga ko'chib yurib oziq-ovqati uchun donni qayerdan oladi?” deb so'raydi Iosafat Barbaro va o'zi javob beradi: “Guvoh sifatida men ushbu holatni tushuntirib berishim mumkin. Fearal oyining oxirlarida butun o'rda bo'yicha hamma yerda don sepishni istovchilarga murojaat etib jar soladilar, toki ular zarur narsalarni tayyorlab qo'ysinlar, chunki mart yoining ma'lum bir kuni don sepish uchun mo'ljallangan yerga boriladi. E'londan so'ng hohlovchilarning hammasi tayyorgarlik ko'rishadi... ishlatadigan hayvonlar, xotinlari va bolalari yoki oilaning ba'zi a'zolari bilan aytilgan joyga ketishadi... to yerni haydab, don sepib va dala ishlarini tugatmaguncha ular shu yerda qolishadi”. Bu so'zlarni Barbaro janubiy rus yerlari haqida aytgan, ammo bu gap boshqa joylarga ham, xususan, Dashti Qipchoqning sharqqiy tomonidagi daryolarning vodiylari va ko'llarning atroflariga ham taaluqli deb aytsa bo'ladi. CHorvachilik va dehqonchilik bilan Qoratol atrofida o'sha paytlari ko'chib yurgan jaloiriyalar ham shug'ullanganlar.

O'troq holatga asosan ko'chmanchilik qilishga imkoniyati qolmagan chorvadorlar o'tganlar.

Muntazam bo'lib turadigan juftlardan ko'plab mollar nobud bo'lardi, bunday paytlarda oddiy ko'chmanchilar qiyin ahvolga tushib qolardilar.

Ko'chmanchi chorvadorlarni xonavayron qilib, dehqonchilik bilan shug'ullanishga majbur etadigan asosiy sabab shu jut edi.

Agar o'troq holatga o'tgan va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi yana mol sotib ololsa va ko'chmanchilikka imkoniyat topsa, u omochni tashlab ko'chmanchilikka o'tardi. Ammo bu ishni juda kam ko'chmanchilar qila olardilar.

CHorvadorlik Dashti Qipchoq aholisining ko'pchiligi uchun xo'jalikning asosiy sohasi bo'lgan. Xo'jalikning bu sohasi odamlardan ko'p mehnat talab qilardi.

Ma'lumki yaylovlarda mol boqishga asoslangan ko'chmanchilarning xo'jaligida, mayda va yirik chorva qishning ikki-uch oyini hisobga olinmasa, yil davomida yaylovdagi o't-o'lan bilan boqiladi, shuning uchun ko'chmanchi yil bo'yi o'z chorvasi ketidan ko'chib yurishi kerak bo'lgan. Bundan tashqari zaruratga qarab ko'chmanchi chorvador quduqlar kavlashi, qor ko'p yog'ganda chorvaga ozuq, yem-xashak topishi, yil fasliga qarab parvarishlashi, qo'zilani asrashi, qo'ylarning junini olish kerak. bahor va yoz paytlarida chorvani o't-o'lan ko'p bo'lgan vodiylarda, ko'llarning buylarida, tog' yonbag'irlarida va dashtda boqishar edi. Kech kuzda qishlovga qaytib kelishardi. Odatda qishlanadigan joylar qishda chorvaga oziq bo'ladigan qamishzor va boshqa butalar ko'p o'sadigan yerlarda bo'lar edi. Endi katta qishlovlar Sirdaryo bo'ylarida bo'lardi. Ro'zbekxonning yozishicha, Sirdaryodagi qishlovlar uzuniga 300 farsaxgacha bo'lib, Turkiston shaxarlari atrofidan boshlanib to Sirdaryoning quyilish joyigacha, havzalargacha cho'zilib ketardi. Bu joylar qaishzor va to'qayzorlarga boy bo'lib, odamlarga o'tin va chorvaga ozuqa sifatida qish chiqarishiga imkoniyat berardi.

Ko'chmanchilar xo'jaligida yovvoyi hayvonlar va qushlarni ovlash hamda baliq ovining ma'lum bir ahamiyati bor edi. Ular yil bo'yi ov bilan shug'ullanishardi. Arkuk, O'Zgand, Oqqurg'on, Sig'noq, Suzoq, Turkiston

va boshqa shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan edi. Sig'noq va Suzoqda o'tkazilgan tekshirishlar bu da'voni to'la tasdiqlaydi. Bu yerlarda charm va temirdan turli buyumlar ishlanardi, zargarlik bezaklari tayyorlar edilar. Maxsus hukmdorlarda sopol idishlar pishirilar edi. Bundan tashqari, harbiy asbob-anjomlar: qilichlar, o'q-yoy, nayza, egar-jubduq, aravalar yasalandi. Hozirgi Qozog'istonning yerlaridan qadimshunoslar qazib olgan topilmalar, harbiy asbob – anjomlar va xo'jalikka tegishil buyumlar ko'chmanchilarning ovullarida ham qishlov va yozlovlar paytida yasalganligini ko'rsatadi. Ro'zbekxon, SHayboniyxonning gapiga asoslanib, ko'chmanchilar terakdan (daraxti hadang) yaxshi va baquvvat aravalar, o'tovlarning yog'ochlarini yasaganlarini aytib o'tadi. Ko'chmanchilarning o'tovlari va aravalarini yasashga, ayniqsa, tobinlar va kereylar mohir edilar. SHuning uchun qozoqlarda hozir ham "Kereyden uul tusa, agashqa kun tuadi", degan maqol bor ("Agar kerey o'g'il ko'rsa, yog'och kun ko'radi, oftob ko'radi").

2.2. *SHaybon o'zbeklarining Movarounnahrğa kirib kelishlari.*

Hozirgi Qozog'iston xuddi bir qator savdo yo'llarining kesishgan jyo'i bo'lib (Xoji Tarxon – Saroycha – Urganch – Buxoro; Itil (VolgaG' – Saroy – Ishim – Ulu – tau (Ulug' Tog')) – Qoratol – yettisuv – Uzoq SHarq; Samarqand – SHoxruxiya – Sayram – yettisuv; Buxoro – Ilon - O'ti – Jizzax – Arkuq – O'zgan – Sig'noq – (Dashti Qipchoq), qadim zamonlardan boshlab O'rta Osiyo, Sibiryo, SHarqiy Turkiston va Xitoy bilan tijorat davrasiga qo'shilib ketgan, XV asrning oxirlaridan boshlab esa sharqiy Ovrupo bilan savdo aloqalariga qo'shilgan. Manba'larda XV asrda ko'chmanchilar bilan O'rta Osiyo o'troq aholisining savdo aloqalari to'g'risida ma'lumotlar oz. Ammo, sharq mualliflarining asarlaridagi ba'zi bir ma'lumotlar ko'chmanchilar Dashti bilan o'troq o'lkalarning bunday aloqalari muntazam bo'lib turganligi haqida so'z yuritishga imkoniyat beradi. XV asrning 20-yillari Jo'chi vorislarining uluslarida buxronli (g'alayonli) yillar bo'lgan edi. SHunga qaramay, Oq O'rda ko'chmanchilari bilan O'rta Osiyolik savdogarlar o'rtasida savdo-sotiq to'xtamagan. Abdurazzoq Samarqandiy shu notinch yillar haqida hikoya qilib, Dashti Qipchoqdan vatanlariga qaytib kelayotgan Movarounnahrlik savdogarlar haqida eslatib o'tdi. SHunga o'xshash dalillar boshqa manba'larda ham bor. "Nusratnoma"ning XV asr 80-yillarida bo'lgan voqealar, ya'ni Sirdaryo havzasi uchun SHayboniyxonning qozoq xonlari (Burunduqxon, Qosimxon va b.) bilan olib borgan kurashi to'g'risida hikoya qilingan bobida Arquq va O'zgand orqali Dashti Qipchoqqa ketayotgan Movarounnahr savdogarlari haqida eslatib o'tiladi.

Buxoro va Samarqand savdogarlari dashtga qog'oz, bo'z, ipak paxtadan to'qilgan matolar va ulardan tikilgan kiyimlar olib borar edilar. O'rta osiyolik savdogarlarning Dashti qipchoqqa olib boradigan narsalari

orasida uy-ro'zg'or buyumlari; cho'yan qozonlar, mis idishlar (qumxnlr, toslar, obdastalar) va boshqa buyumlar bor edi. Ular bu buyumlarni odamda chorva mollariga almashib katta foyda qilar edilar.

Ko'chmanchilarning oliy tabaqaga oid toifalari ham o'troq aholi bilan bo'ladigan savdodan ko'p foyda olardilar. Aytib o'tish kerakki, ko'chmanchilar "madaniy xalqlarning ashyo va buyumlariga, ayniqsa matolariga ko'proq ehtiyojlari bor edi... shu sababdan o'z chorvalarini madaniy mamlakatlarining chegarasiga haydab kelishardi". Quyidagi voqea diqqatga sazovor: Dashti Qipchoq ko'chmanchilarning Movarounnahrning o'troq xalq yashovchi yerlariga qilgan uzluksiz bosqinlari sababli SHayboniyxon 1509 yili Samraqand, Buxoro va Xorazm savdogarlariga Dashti Qipchoq aholisi bilan savdo qilishni man' qilib qo'ydi. Ro'zbekxon bunday deb yozadi: "Xurshid monand oliyhazratning (SHayboniyxonning) hokimiyati muvazanat topganch, mug'ul hamda chig'atoy hukmdorlaning hukmronligi inqirozga uchragan Dashti qipchoq xonlarning xasad tomirlari tarang bo'ldi. Keyim kechakka ehtiyoj, kiyim va kafan odamlarga zarur bo'lgani sababli oliy hazrat (SHayboniyxon) tasarrufidagi shaharlarga ular bosqin qilishlari kerak edi. SHuning uchun vaqt-vaqti bilan Turkiston aholisi qozoq savdogarlari bilan aloqa qilmasliklari va ular bilan shaharlarning aholisi bir-birlariga tashrif buyurmasliklari, savdo qilmasliklari haqida oliy farmonlar berilardi. Vaqt-vaqti bilan (xon) qozoq savdogarlarining (molini) Turkiston va Xorazmning ba'zi shaharlarini talon-taroj qilishga buyurib turardi...". SHunga qaramay, ko'chmanchilar dashti bilan O'rta Osiyo o'rtasida savdo davom etardi.

Ko'chmanchilar bilan o'troq aholi o'rtasidagi savdo markazlari Sirdaryo bo'yi shaharlari: yassi (Turkiston), O'tror, Savron, Arquq, O'zgand va Oqqo'rg'onlar bo'lgan.

Dashti Qipchoq ko'chmanchilari Ovrupo savdogarlari bilan ham savdo qilganlar. Rus solnomachisi 6982 (1472y.) yil bo'yicha bunday xabar beradi: "O'sha yozning o'zida, iyul oyining yettinchi kuni, O'rdadan Nikifor Basenkov O'rta O'rda podshosi Ahmadning elchisi Qorakuchuk bilan keldi; u bilan 700 dan ko'proq tatarlar kelishdi, ularni ovqatlantirishdi. Mol olib kelgan mehmonlar 3 ming ikki yuz, sotiladigan otlar 40 mingdan ortiq va ashyolar ko'p edi". Tatarlar 1475-1476 yillari Moskov va Nijniy Novgorodga ko'p otlar va ashyolar olib kelishgan. Ikkala tomon ham yaxshigina savdo qilishganga o'xshaydi, ammo to XV asrgacha Dashti qipchoq savdogarlari ustunroq bo'lishgan, chunki rus savdogarlari uchun dashtga borish ko'p sabablar tufayli ancha qiyin bo'lgan. Bu sabablardan biri ko'chmanchilarning dashtdan o'tib borayogan karovnlarni tashlashlari edi. Lekin, XV asrning oxirgi choragida rus savdogarlari Volgadan ancha narilarga ham mol olib borardilar. Ular charm buyumlar, poyafzal, qog'oz va rus ustalari ishlagan boshqa buyumlarni dashtga olib kelishardi. Moskov bilan muttasil savdo-sotiq munosabatlari XV asrning 80-yillarida, rus armiyasi Ugriyaga bosib kirib, vogullar va boshqa qator mayda knyazliklarni zabt etgan paytlarida Ibaqxon tomonidan o'rnatilgan edi. Ko'chmanchilarning hayotida ayniqsa aslzodalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan harbiy o'ljalar tufayli bosqinlar yuqorida aytib o'tilganday doimiy bo'lib qolgan va bir turmush ehtiyojiga aylangandi.

Abdurazzoq Samarqandiy Abdullatifning hukmronligi davrida (1449-1450 yy.) haqida hikoya qilarkan, Abdullatifgacha ham ko'chmanchi o'zbeklarning qo'shinlari har qishda Movarounnahrda bostirib kirib Samarqand va Buxoroga besh farsaxgacha yaqin yerlarni talon-taroj qilar, aholining mol-mulki va asirlarini olib ketardilar, deb yozadi.

Abdurazzoq Samarqandiyning aytishicha, Abdullatif temuriylar davlatining chegaralarini shunday mustahkamladiki, ko'chmanchi o'zbeklar

uning davrida bu shaharlardan 100 farsax nariga ham kelolmaganlar. Abdullatif ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrğa bosqinlarini ma'lum darajada cheklashga erishganga o'xshaydi. Quyiroqda ko'ramizki, u o'ldirilgandan keyin ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrğa xurujlari yana tez-tez bo'lib turgan. Agar shaharlar qal'alari bo'lgani uchun ko'chmanchilardan o'zlarini muhofaza qilolsalar, atrofdagi qishloqlar bemalol talon-taroj qilinardilar.

Ko'chmanchilar va O'rta Osiyoning o'troq aholisi o'rtasidagi munosabatlarda Xorazm va Sirdaryo bo'yida joylashgan shaharlar uchun bo'lgan kurash muhim o'rin tutar edi. Aytib o'tishimiz kerakki, biz asosan bu munosabatlarning siyosiy tomonini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, O'ra Osiyo CHingizxon tomonidan zabt etilgandan so'ng uning o'g'illari Jo'chi va CHmig'atoylarga bo'lib berilgandi. O'rta Osiyoning g'arbiy tomoni Urganch shahri bilan birga Jo'chi ulusiga, janubiy tomoni esa Kot va Xiva shaharlari bilan CHig'atoy ulusiga o'tgan.

XIV asrning 60-yillarida Oltin O'rdadagi g'alayonlardan foydalanib, qo'ng'iroq qabilasidan bo'lgan Husayn So'fi Xorazmda hokimiyatni qo'lga oldi va shu paytdan boshlab o'z nomidan tanga zarb ettirdi. Mo'iniddin Notanziyning shahodat berishicha, Husayn So'fining otasi Oltin O'rdaning nufuzli amiri Nangadoy 1361 yili Saroyda Keldibek tomonidan o'ldirilgan edi. Amir Nangadoy O'zbekxon davrida (1312-1342 yy.) Xorazmda hukmronlik qilgan Qutlug' Temur xonadonidan bo'lsa kerak. Nangadoy Qutlug' Temurning vafotidan so'ng Xorazmda uning o'rniga hukmron bo'lgan.

Amir Temur bir paytlar CHig'atoy ulusiga kirgan yerlarning ko'p joylarida hokimiyatni qo'lga kiritgandan so'ng, aval CHig'atoy ulusiga tegishli bo'lgan janubiy-sharqiy Xorazm uchun qo'ng'iroqlar bilan faol

kurash boshladi. Lekin faqat to'rt marta harbiy yurish qilgandan so'ng u o'z maqsadiga yetdi.

Temur O'trordan Xorazmga yuborgan elchi va choparni YUsuf So'fining buyrug' bilan hibsga olib qamadilar. To'ybug'a boshliq Xorazm askarlari Buxoro atrofini talon-taroj qildilar va o'sha yerda ko'chib yurgan turkmanlarni taladilar. Temur 1376-77 yillari Qamariddinga qarshi yurishdan oldin YUsuf So'fidan Xorazm qo'shinin yordamga yuborishini so'raganida, u qudratli Temurning talabini bajarmadigina emas, balki Buxoro va Samarqandatroflariga bosqinlarni hatto ko'paytirdi. Temur faqat 1379-80 yiliga YUsuf So'figa qarshi yurish qilishga imkoniyat topdi va uch oylik qamaldan keyingina Urganchni olishga muvaffaq bo'ldi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Urganch qamali paytida YUsuf So'fi va Ming So'fi o'rtasida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketdi. Bu kurash taxtdan ag'darilgan va o'ldirilgan YUsuf So'fi tarafdorlarini qattiq ranjitdi, natijada ular amir Xo'jaloq rahbarligida shahar darvozalarini Temur qo'shinlariga ochib berdilar. Temur amriga binoan, Xorazm poytaxti shafqatsiz ravishda talangan, hunarmand ustalar va olimlar esa Samarqandga olib ketilgan edi. Bu safar Suyurg'atmish va Temur nomlariga xutba o'qilib, tanga zarb etilgan. Bu yurish Temurning Xorazmga to'rtinchi yurishi edi, shunday keyingina Xorazmning janubi-sharqiy qismi uzil-kesil Temur tasarrufiga o'tgan. Xorazmning shimoliy-sharqiy qismi bo'lsa, avvalgiday Qo'ng'irot sulolasining hukmi ostida edi. SHu, 1379-80 yilning o'zida hokimiyatni Ming So'yidan olgan Sulaymon So'fi To'xtamish bilan ittifoq tuzdi va uni o'ziga oliy hukmdor deb tan oldi, bunga 1379-80 yildan to 1387 yilgacha Xorazmda To'xtamish nomiga zarb etilgan tangalar ham dalolat beradilar.

Keyinchalik ro'y bergan voqelarga qaraganda, Sulaymon So'fi va Xorazm qo'shinlari To'xtamish va Qamariddinlarning 1387 yili Movarounnahrqa qilgan yurishlarida qatnashgan. Mu'iniddin Natanziyning

aytishicha, bu bosqinda Xorazm qo'shinini Oqcha o'g'lon bilan 1372 yili sotqinligi uchun Temur tomonidan qatl etilgan Kayxusrav Huttaloniyni o'g'li boshqarib borganlar. Bunga javoban, Temur 1388 yili Xorazmga yurish qildi va uning poytaxtini vayron qildi. Sulaymon So'fi va Eltutmish o'g'lonlar Qumkent yaqinida yana mag'lubiyatga uchrab Dashti qipchoq tomoniga qochdilar. SHunday qilib, Xorazm Temur davlatining tarkibiga faqat 1388 yilgina qo'shildi va 1390-91 yili Temur bu yerga o'ziga qarashli amir Muso-akani hukmdor etib tayinladi.

Temur vafotidan keyin 1406 yilning boshlarida SHodibekning amir Umarosi yedigey Xorazmni oldi. Amir Muso-aka qochdi. yedigey Xorazmning hokimi qilib Oltin o'rdalik amir Anqoni tayinladi. Fo'lodxon davrida Anqo o'rniga Kaljo hokim qilib tayinlandi. 1410-11 yili esa bu yerda yedigeyning yosh o'g'li Muborakshoh hukmronlik qilgan.

SHohrux 1408-1409 yil Xalil Sultonni yengib, o'z hokimiyatini Movarounnahrda ham o'rnatgani ma'lum. G'alaba sharafiga u avval Samarqandda, so'ngra Xirotda ham katta tantanalar uyushtirgan. Tantanalarda yedigeyning o'zi va Fo'lodxon nomidan yuborgan elchilari ham qatnashganlar. SHohrux elchilarni izzat-ehtirom bilan kutib olgan va Abdurazzoq Samarqandiyning hikoya qilinishicha, ular bilan Xorazm va Dashti qipchoqqa SHohrux amir Xasan boshliq elchilarni yuborgan. Elchilar bilan Fo'lodxon, yedigey va Isabeklarga shoh sovg'alari orilgan karvonlar yuborilgan. SHohrux elchilar orqali yedigeydan qizini Muhammad Jo'qi nikohiga berishini so'ratga. Bu nikoh amalga oshganmi, yo'qmi, bizga noma'lum, ammo sovchi yuborilishining o'zi ikkala davlatning yaxshi munosabatlar o'rnatilga bo'lgan ishtiyoqlaridan dalolat beradi. Bu voqea yana o'zaro janjallardan anchagina nurab qolgan Temur saltanatida tartib o'rnatishga ulgurmagan SHohruxning Xorazm qo'ldan ketishiga vaqtincha majbur ekanligini ham ko'rsatadi.

2.3. *XV asr oxirida Movarounnahrda siyosiy vaziyat.*

Sulton Abusa'id mirzoga qaytaylik. Mas'ud ibn Usmon Ko'histoniy sulton Abusa'idning Abulxayrxon huzuriga borgani va xon tarafidan qanday kutib olinganini batafsil bayon qiladi. Sulton Abusa'id bir necha kun mobaynida xon tomonidan quyilgan odamlarning sinchkov kuzatuvlari ostida qarorgohda turdi va xonga shahzodaning badavlatligi, aqlliligi, jasur hamda davlat boshqarishga qodir ekanligini aytganlaridan keyingna Abulxayrxon uni qabuliga musharraf etdi. O'g'lonlar, sultonlar, no'yonlar va baland martabali davlat amaldorlari bilan kengashib olgandan so'ng, xon Abusa'id

bilan birgalikda Samarqandga yurish qilishga rozilik berdi. Xondamirda o'zbek xonlari tomonidan ularning xuzurlariga yordam so'rab keluvchilarni qanday qabul qilinishlari marosimlari batafsil yozib qoldirilgan. Odatga ko'ra, o'zbek hukmdorlari xuzurlariga kelgan mehmonlarni uylarga joylashtirardilar. Ertasiga mehmonni xon xuzuriga taklif etishardi, u yerda mehmon kelgunigacha barcha shahzodalar, no'yonlar va mansabdorlar yig'ilishib turardilar. Bu yerda mehmon tobug' deb atalmish mehmonni obro'sizlantiruvchi odatni bajargandan so'ng xon uni o'z yoniga o'tkazar va mehmondorchilik boshlanardi. Ziyofatda mezbolar mehmonga mumkinqadar ko'proq ichirishga haakat qilishardi. Bu uning uchun bir imtihon edi. Agar mehmon ko'p sharob va qimiz ichib mast bo'lmasa, xon uni o'z hurmatiga loyiq ko'rardi. Uni bir necha kun davomida kuzatib yurishardi. SHundan keyingina xon unga qanday qarorga kelganini ma'lum qilardi. Masalan, Sultonni Xusayn mirzo "qozoq" bo'lib yurgan paytida Abulxayrxon xuzurida bir hafta bo'lgan, shundan so'ng xon unga yordam berishga rozi bo'ldi. Ammo Sulton Xusayn hech qanday yordam olmaganini bizga ma'lum:

1451 yilning yozida Abusa'id bilan ko'chmanchi o'zbeklarning birgalikdagi Samarqandga yurishi bo'ldi. O'zbek qo'shinlariga Abulxayrxon o'zi qo'mondon bo'lib yurishga chiqdi. Mirzo Abdulla va Abusa'id o'rtasida jang 1451 yilning 10 iyunida Bulung'ur daryosi bo'yidagi Qatavon degan jayda bo'ldi. Jangda mirzo Abdulla mag'lubi yata uchrab, sulton Abusa'idning buyrug'i bilan qatl etildi. SHunday qilib, o'zbeklarning faol yordamlari bilan sulton Abusa'id Samarqandni oldi. Mirxond va Xondamirlarning so'zlariga qaraganda, sulton Abusa'id shaharga kirishda ko'chmanchi o'zbeklarni aldadi va ulardan tuhfa berib qutilib oldi. Mirxond quyidagicha hikoya qiladi: "agar mirzo Abudlla ustidan g'alaba qozonsa, o'zbeklar bilan qanday muomala qilish mulohazasi o'sha mashhur janggacha

qolgan bir necha kun davomida Abusa'idni qiynar edi. Abusa'id, agar o'zbeklar shaharga bo'strib kirsalar, aholini talab shaharga ko'p talofat yetkazadi va bu, fuqarolarning noroziligiga sabab bo'ladi, deb qo'rqardi. Abusa'idning va o'zbeklarning askarlari Qo'hak daryosidan kechib o'tib, Samarqand shahri darvozalariga yaqin kelganlarida, abusa'idning taklifi bilan qo'shinga dam berish va otlarni sug'orib yem berish haqida buyruq berildi. Ushbu qo'nim paytida Abusa'id payt poylab shahar darvozalari oldiga kelid va ularni taqillatib qichqira boshladi: "Men sulton Abusa'idman. Darvozani ochib o'zbeklarning qo'shinidan o'zingizni mudofaa qiling". Qorovullar darvozani ochib. Sulton Abusa'id va uning mulozimlarini kimgizdi, o'zbeklar esa shahar chetida qolishdi, ularni shahar ichiga kimgizishmadi". O'zbeklarning Abusa'id ketidan shaharga kirishga urinishlari haqida "Tarixi Abulxayrxoniy"da hech narsa deyilmagan. Albatta, ko'chmanchi o'zbeklar bu katta va boy shaharga kirib talon-taroj qilishdan qaytmadilar, bunga ehtiyotkor shaharliklar darvozani berkitib xalakit berishgan. Ko'chmanchi o'zbeklar shaharga kirmay, temiriylarning shahar atrofidagi va dala xovlilarida joylashishgan. Bog'i maydonda esa xonning o'zi mulozimlari bilan istiqomat qilgan. SHu Bog'i maydonga Abusa'idning qimmatbaho tuhfalari bilan shayxulislom xoda Fazliddin boshliq shahar amaldorlari va din peshvolarining vakillari kelishgan. Bizdagi manba'ga ko'ra, Abusa'id o'zbek xoniga har kuni qimmatbaxo sovg'alar yuborib turgan, Dashti qipchoqqa ketishidan bir kun avval esa marhum Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimni unga xotinlikka bergan. Mas'ud ibn Usmonning aytishicha, Abulxayrxon o'zining nomiga xutba o'qilib, tanga zarb qilingandan keyingina Samarqand bo'sag'asidan dashtga ketgan. Boshqa manba'lar bu haqda hech narsa bemaganlar. Temuriylar davrining tangalari yetarli darajada yaxshi o'rganilmagan, shuning uchun bu haqda qat'iy biror fikr aytish qiyin. So'zsiz, ko'chmanchi o'zbeklar Samarqand taxtini olishda

Abusa'idga yordam berganlari uchun hotamona mukofotlar, sovalar bilan taqdirlanganlar. Buning ustiga, ular Samarqand atrofini rosa talab, keyin o'z yaylovlariga qaytib ketganlar.

Manba'larda Astrobod va Eronning boshqa shimoliy viloyatlariga SHohrux hamda Ulug'bekning vafotlaridan so'ng o'zbeklarning bosqinlari haqida shahodat beradigan xabarlar uchramaydi. Ammo, bizning fikrimizcha, bunday bosqinlar XV asr o'rtalarida bo'libgina qolmay, avvaliga qaraganda anchagina ko'paygan ham. Darhaqiqat, agar ko'chmanchi o'zbeklar Temur va temuriylar saltanati SHohrux davriga nisbatan kuchli bo'lgan paytida doimo xuruj qilib turgan bo'lsalar, bu saltanat o'zaro ichki kurashlar bilan kuchsiz bo'lib qolganida tinch qo'ygan bo'lmasalar kerak. ma'lumki, SHohrux va Ulug'beklarning davrida ularning Movarounnahr va SHimoliy Eronga xurujlari ancha ko'paygan. Movarounnahrdan ular Samarqand va Buxorogacha yetib kelishgan. Abulqosim Bobur davrida faqat Astrobodning o'zida G'iyosiddin Ali tarxon, Husrav tarxon, SHerxo'ja, pahlavon Husayn Devoriy, Xaspi SHoh Temurlarning tumanlari turgan. 1456-57 yillari Abulqosim Bobur qishni Mashhadga o'tkazayotib, Niso va YAzirga Nizomiddin Ahmadyor va Muboriziddin Husayn Jondorlarni bu viyalotlar chegaralarini qo'riqlash haqidagi buyruq bilan jo'natgan.

Abulqosim Boburning vafotidan so'ng mamlakatda g'alayonlar va tartibsizliklar boshlandi. Mozandaronda hibda saqlanayotgan Alouddavlaning o'g'li mirzo Ibrohim qochdi va birqancha urunishlardan so'ng 1457 yili sentyabr oyida Xirotni oldi. Abulqosim Boburning o'g'li, valiahd SHoh Mahmud Mashhadga qochdi. SHunday bir sharoitda sulton Abusa'id katta qo'shin bilan Xurosonga qarab yurdi. Balxda unga Balx hokimi SHayxxo'ja qo'shildi va ular Amudaryoning chap qirg'og'ida sulton Ibrohimni mag'lubiyatga uchratdilar. Abusa'id hech qanday qarshilik ko'rmay,

Xirotgacha bosib keldi va 1457 yili 2 oktyabrda Qipchoq darvozasi orqali poytaxtga tantanavor kirib keldi.

SHundan keyin ko'p vaqt o'tmay, Balxda Abusa'idning o'g'illari Muhammad Jo'qiy va mirzo Ahmadlar qo'zg'olon ko'tardilar, shuning uchun Abusa'id Xirotni tashlab chiqishga va ularga qarshi yurish qilishga majbur bo'ldi. SHahzodalar yengildilar, Abusa'id bo'lsa Balxni ham egalladi. Abusa'id na Hirot, na Samarqandga bormay, qishni Balxda o'tkazishga qaror qilgani qiziq. Uning bunday qarorga kelganini Sig'noqdan o'zbeklarga qattiq zarba bergandan so'ng Turkiston, Toshkent va SHohruxiya atroflarini talon-taroj etgan va ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrga bostirib kelishidan xavfsirashi bilan tushuntirsa bo'ladi. Xuroson va Movarounnahrdan uncha uzoqlashmaslik niyatida vujudga kelgan sharoitni hisobga olib u Balxda qolishga qaror qildi, chunki bu yerdan qo'shinni xoxlagan tarafga zudlik yuborish mumkin edi. Ammo shunga qaramay, bu paytda Bodhizda turgan Sulton Ibrohim Abusa'idning Balxdaligidan foydalanib, Xuroson poytaxtini bosib oldi.

Bu paytda Temuriylar saltanati shu qadar maydalanib ketdiki, 1458 yilning boshlarida Xurosonning o'zida birnecha mutlaqo mustaqil hukmdorlar bor edi, ya'ni Xirotida – Sulton Ibrohim, Marvda va Mohanda – mirzo Sanjar, Tusda – SHayx Mahmud hukmronlik qilishdi, Ixtiyoriddin qal'asi – Ahmad yasovul hukmida, Saraxs qal'asi – Abudlla Pirzoda hukmida, Sa'luq qal'asi – amir Xudoydod hukmida, Imod qal'asi – Bobo Hasan hukmida edi; Xobushonda – Xusayn shayx Temur, Balxda esa sulton Abusa'id hukmron edilar.

SHu kunlari Niso va Abivard atrofida Alouddavla paydo bo'ldi va u yerdan o'zining kelgani haqida Xirotga chopar yubordi. Abulqosim Boburdan Badaxshonda mag'lubiyatga uchrab, tog'larda berkilgandan so'ng Alouddavla haqida hech xabar yo'q edi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, u

Xorazmga, u yerdan Dashti qipchoqqa, ko'chmanchi o'zbeklar tomonga qochib borgan. Alouddavla Abulxayrxon xuzuriga borganligi bizga aniq ma'lum emas, chunki bu haqda faqat Mas'ud ibn Usmon Ko'hisoniygina xabar beradi. XVII-XVIII asr O'rta Osiyo tarixnavislari bu haqda bir narsa demaganlar. Abdurazzoq Samarqandiy hikoya qilishicha, Alouddavla Obardibor viloyatida yashagan. Bu viloyatning qayerda bo'lganligini aniqlay olmadik. Abdurazzoq Samarqandiy Obardibor ko'chmanchi o'zbeklar mulkiga kirgan, deydi. Davlatshoh Samarqandiyning so'zlariga qaraganda, Alouddavla Abulqosim Boburdan yenglib qochgandan so'ng Dashti qipchoqqa borib qolgani va bir necha yil davomida uning haqida biror xabar bo'lmagan. Xondamirning yozishicha, Alouddavla to Abulqosim Boburning vafotiga qadar Dashti qipchoqda, o'zbeklar orasida yashagan. U o'zbek xonining yordam berishga roziligini ololmagan ko'rinadi. o'zaro ichki kurashlar va ayniqsa, 1457 yilda qalmoqlardan katta mag'lubiyatga uchragandan so'ng nihoyatda kuchsizlanib qolgan ko'chmanchi o'zbeklar davlati og'ir inqirozni boshidan kechirar edi. Ko'chmanchi o'zbeklar mamlakatdagi ichki ishlar bilan band bo'lib, na Alouddavla va na boshqa temuriylarga yordam berishga qodir emas edi.

Xullas, sulton Ibrohim otasini Sanjob daryosining bo'yida kutib olib, unga oliy hukmdorlikni topshirdi, o'zi esa qo'shinlarning oliy qo'mondoni bo'lib qoldi. 1458 yili 23 aprelda Alouddavla Hirotga kirib keldi va taxtni egalladi. Ammo uning hukmronligi ikki oyga bormadi. 1458 yil oktyabr oyining o'rtalarida turkman Qora qyunlarining xurujiga bardosh berolmay, poytaxtni shahardan 15 farsax narida qo'shin bilan turgan Jaxonshohga qoldirib, qochdi. Alouddavla qochganidan keyin bir oz vaqt G'urda turdi, u yerda o'g'li bilan janjallashib qolib, Jahonshoh tomoniga o'tib ketdi. Voqealarning rivojiga qaraganda, u Jahonshoh huzurida ham uzoq bo'lmagan, chunki biz uni tez orada Marvda, mirzo Sanjar huzurida

ko'ramiz. Jahonshohning mavqei Xurosonda ham, Ozarbayjonda ham uncha mustahkam emas edi. SHu paytgacha Tabrizda hibsda saqlanayotgan o'g'li Husayn Ali Ozarbayjonda qo'zg'olon ko'tardi. Buning ustiga, 1458/59 yilning erta bahorida Abusa'id Murg'ob daryosidan o'tib, Jahonshoh bu yerdagi daryo kechuvini muhofaza qilish uchun yuborilgan turkman sipohlari bo'linmasini tor-mor qildi. Bunday qiyin sharoitda Jahonshoh Abusa'id bilan sulh tuzishga va Xurosondan o'z kuchlarini olib chiqib ketishga majbur bo'ldi. Abusa'id 1458 yili 16 dekabrda ikkinchi marotaba, bu gal uzil-kesil Hirotni qo'lga kiritdi.

Keyinroq Abusa'id ittifoq tuzgan sulton Sanjar, Alouddavla va Sulton Ibrohimlarni yengishga muvaffaq bo'ldi va Astrobod hamda Mozandaronni bosib oldi. Abusa'id XV asrning 60-yillarida, SHohruhning vafotidan keyin parokanda bo'lgan temuriylar saltanatini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Bu saltanatning qayta tiklanishi bilan temuriylarning qo'shnilari turkman, ko'chmanchi o'zbeklar, qalmoqlar va boshqalar hisoblashmasdan ilojlari yo'q edi. Endi ular qudratli qo'shinlari bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga intila boshladilar. Masalan, 1460 yili Hirotga, sulton Abusa'id huzuriga bir qancha qo'shni mamlakatlarning elchilari keldilar. Odatdagidek, ushbu elchilarning kelishdan maqsadlari va ularning sulton Abusa'id bilan olib borgan muzokalari haqida manba'lar xabar bermaydilar. Fikrmizcha o'zaro kurashlarda kuchsizlangan o'zbeklar ham, qalmoqlar ham Abusa'id davlatining qudratli bo'lib borishi bilan hisoblashmay ilojlari yo'q edi. Bundan tashqari, shu paytlarda ko'chmanchi o'zbeklarda ham, qalmoqlarda ham ichki nizolar kuchaygan edi. Mamlakat mayda mulklarga bo'linib ketganligidan qalmoqlar ham temuriylar bilan tinch-totuv bo'lishga intilishardi. Abusa'id elchilarni iltifot bilan qabul qildi va qalmoqlar yurtiga o'zining elchisi – amir Muhammad Xalilni yubordi. Demak, Abusa'id ham shimoliy qo'shinlari bilan tinch-totuv bo'lishag intilgan. Gap shundaki,eng

faol, taxt uchun eng xavfli talabgorlar Muhammad Jo'qiy va Sulton Xusaynlar Abusa'idning muxoliflari bo'lib, bu paytda ko'chmanchi o'zbeklar bilan aloqa bog'lagan edilar. Bu holat Abusa'idni tashqishlantirardi. Qalmoqlar bo'lsa, Sirdaryoning quyi oqimidagi viloyatlar va Ili o'lkasiga bosqin qilib temuriylar saltanatining shimoliy xududlariga yaqinlashib, Movarounnahrning o'troq yerlariga bostirib kirish va vayron qilish xavfini solib turardilar.

YUqorida aytib o'tilganidek, sulton Abusa'idga da'vogar raqiblardan biri 1457 yili kuzda Balxda g'alayon ko'targan Abdullatifning o'g'li Muhammad Jo'qiy edi. Abusa'iddan mag'lubiyatga uchragandan so'ng u Xirotga qochgan, keyinroq esa Dashti qipchoqqa, Abulxayrxon xuzuriga borgan bo'lishi mumkin. Mas'ud ibn Usmon Ko'hisoniyning so'zlariga qaraganda, o'zbek xoni o'zining xotini Robiya Sultonbegimning qarindoshi sifatida uni iliq kutib olgan va Samarqand taxti uchun kurashda yordam berishga rozi bo'lgan. 1460 yilning yozida sulton Abusa'idga qarshi Seiston hukmdori amir Halil ham isyon ko'tardi. SHu paytning o'zida, Mozandaronda turgan Sulton Husayn Boyqaro anchagina navkarlar bilan Xuroson tomonga yurdi va Sabzavor hamda Nishopurgacha yetib keldi. Abusa'id bundan xabar topib, ularga qarshi yurish qildi. Muhammad Jo'qiy bu qulay qursatdan foydalanib, Burka sulton va Peshkada o'g'lonlar boshchiligida u bilan birga yurishda qatnashayotgan o'zbeklarning qo'shini yordamida YAssi, Sayram, Axsikent, Toshkent va SHohruxiyani qo'lga kiritdi.

SHuni ham aytib qo'yish kerakki, SHohruxiya avval sulton Abusa'id xizmatida bo'lgan ko'pchilik amirlar Muhammad Jo'qiyga kelib qo'shildilar. Mas'ud ibn Usmon Ko'hisoniy bu amirlar qatorida amir Nur Sa'id va Sulton arg'inlarni eslab o'tadi. Ulardan tashqari avval Ulug'bek xizmatida bo'lgan va keyinchalik uning fojeali o'limidan so'ng markaziy xukumatga

bo'ysunmay Movarounnahrning ayrim muzofotlarida mustaqil xukmronlik qilayotgan ko'pgina "chig'atoy" beklari ham shahzoda atrofida yig'ilishib birlashishdi.

Muhammad Jo'qiy juda qisqa muddatda Movarounnahrni qo'l ostiga oldi. Ma'sud ibn Usmon Ko'hisoniyning yozishicha, Samarqand, Buxoro va ba'zi yaxshi muhofaza qilinadigan shaharlar hamda qal'alardan tashqari Movarounnahrning barcha viloyatlari Muhammad Jo'qiyga tobe bo'lganlarini ma'lum qildilar. Muhammad Jo'qiy va ko'chmanchi o'zbeklar Toshkent, SHohruxiya va boshqa shaxarlarni olib, Sirdaryodan o'tib, Samarqandga qarab yurdilar. Samarqand hokimi amir Mazid argin ularga qarshi Samarqanddagi muxofza askarlari bilan chiqdi, ammo Ko'hak daryosining o'ng qirg'og'ida mag'lubiyatga uchradi. SHunday bo'lsa ham, Muhammad Jo'qiy va ko'chmanchi o'zbeklar Samarqandni ololmay, atrof qishloqlarda qarorgoh qilib, aholini tashlash bilan shug'ullanishdi. Ma'sud ibn Usmon Ko'hisoniyning yozishicha, ba'zi viloyatlarni ipidan-ignasigacha talashgan. Aholini talash shunday avj oldiki, manba'larda ko'rsatilishicha, Muhammad Jo'qiy talon-tarojni qat'iyan man' qilishga majbur bo'ldi.

Sulton Abusa'id Movarounnahrda taxlikali xabarlar olganidan so'ng 1461 yil 17 yanvarda u yerga Mu'izziddin SHeroziy boshchiligida qo'shin yubordi. 13 marta esa bu harbiy yurishga o'zi rahbarlik qilish uchun yo'lga chiqdi. Muhammad Jo'qiy Kufinda shoshilinch ravishda amirlari va sarkardalarining kengashini chaqirdi. Bu yerda Abusa'id bilan qanday kurash olib borish masalasida Muhammad Jo'qiyning amirlari va sarkardalari o'rtasida kelishmoqchilik bo'ldi. Burka sulton, Peshkada o'g'lon va boshqa o'zbek amirlari fursat o'tkazmay, Amudaryo bo'ylariga borib Abusa'idning yo'lini to'sishni taklif qildilar. Muhammad Jo'qiyning o'zi va ba'zi chig'atoy amirlari hamda ko'chmanchi o'zbeklarning fikrlarini quvvatladilar. Ammo, Nursa'id va Sulton arg'in boshliq ko'pchilik chig'atoy amirlari

SHoxruhiyaga, yaxshilab kuch to'plab olish uchun shimol tomonga chekinish zarur, deb qat'iy turib oldilar. Ularning fikricha, Abusa'id Samarqandga kirsam ham keyinroq uning amirlari bir qismi Muhammad Jo'qiy tomoniga o'tadi. SHunday qilib, ular yetarli darajada kuch to'plashadida, Abusa'idni bir zarba bilan mag'lubiyatga uchratishadi. Xuddi shu mulohazalar ustun bo'lib, chig'atoy qo'shinlari qarorgohini tark etib shimol tomonga chekina boshladi. O'zlarining rejalari qabul qilinmaganidan g'azablangan ko'chmanchi o'zbeklar ham qarorgohni tark etib, movarounnahr qishloqlarini rosa taladilar-da, yaylovlariga qarab ketdilar.

X U L O S A

O'zbek xalqi O'rta Osiyoning qadimiy xalqlaridan biri bo'lib, deyarli 3000 yillik tarixga ega.

Bu – jumhuriyat xududlarida o'tkazilgan qadimshunoslik tadqiqotlarida isbotlangan va tasdiqlangan.

O'zbeklarning ajdodlari juda qadim zamonlarda ham hozirgi O'zbekiston xududlarida yashaganlar. Ushbu yerlarda XVI asrning boshlarida o'z hukmronliklarini o'rnatgan ko'chmanchi o'zbeklar bo'lsa, faqat o'zbek xalqigina emas, balki qozoq xalqining ham shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lganlar. Ammo ular o'zbek xalqining etnik tarkibiy qismidan biri bo'lib, tez orada Movarounnahrning turkiy ommasi orasiga singib ketganlar vamfaqat unga o'z nomlarini berganlar, xolos. SHuning uchun ayrim olimlarning o'zbek xalqi faqat XV asrdan keyingina ma'lum ,degan da'volari xatodir.

Ko'chmanchi o'zbeklarning salbiy tarixini o'rganish va tahlil etish beqiyos ahamiyatga ega.

XVI asrning boshlarida O'rta Osiyoda zodagonlarning o'zaro kurashlari va sulolalar o'rtasidagi nizolar kuchayib ketdi, bunday holat feodal bo'linishlarga olib keldi. Xuddi shu yillari Abulxayrxon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar davlati tashkil topdi. Bu davlat sobiq SHaybon ulusining xududlarida paydo bo'lib, keyinchalik, XV asrnign o'rtalarida, o'z hukmronligini bir paytlar Oq O'rda hukmida bo'lgan yerlarga ham o'tkazdi.

Ba'zi olimlar Abulxayrxon davlati ko'chmanchilarning vaqtinchalik birlashmasi bo'lgan, deb hisoblaydilar. Ammo unda mavjud bo'lgan davlat mahakamalari, devonlar, davlat mansabdorlari, soliq tartiblari hamda davlat boshlig'i bo'lgan xon nomidan tangalar zarb qilinishi, boshqa davlatlar bilan

elchilik munosabatlari, ya'ni davlat tuzumi alomatlari uning ko'chmanchilarning vaqtinchalik birlashmasi emas, markazlashgan bo'lmasa ham haqiqiy patriarxal-feodal davlat bo'lganligidan dalolat beradi. Bu davlatning Abulxayrxon vafotidan so'nggi siyosiy inqirozi qisqa muddatli bo'lib, tez orada XV asrning 90-yillaridan boshlab yangi siyosiy davlat birlashmasi bilan almashdi, undan SHayboniyxon boshliq o'zbeklarning va Burunduqxon boshliq qozoqlarning davlati paydo bo'ldi.

Qirq yildan ko'proq vaqt davomida ko'chmanchi o'zbeklar nazorati ostida bo'lgan bepoyon o'lkada aholining asosiy qismi yaylov chorvadorligi, hozirgi markaziy va Janubiy Qozog'iston xududlarida yashagan aholi esa sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bilan shug'ullangan. O'tror, Sig'noq, Suzov va markaziy Qozog'istonning boshqa shaharlarida o'tkazilgan qadimshunoslik izlanishlari bu yerlarda hunarmandchilik va savdo nihoyatda rivoj topgshanidan darak beradi. Aytib o'tishimiz lozimki, hunarmandchilik bilan ko'chmanchilar ham qisman shug'ullanishgan. Manba'lardagi ma'lumotlarga qaraganda, ko'chmanchilar charm, jun va yog'ochdan turli ashyolar tayyorlaganlar.

Ko'chmanchi o'zbeklar davlatida yerga, aniqrog'i yaylovlar va undagi suv manbalariga qurilgan inshootlarga zodagonlik xususiy mulkchiligi mavjud bo'lgan. Bu davlatda yana zodagonlik tartibotlariga mansub suyurg'ol va tarxonlik ham bo'lgan. Keltirilgan dalillar ko'chmanchilar jamiyatida, Movarounnahrda kuchsizroq bo'lsa ham, zodagonlik munosabatlar rivojlanganligini ko'rsatadi.

Ko'chmanchi o'zbeklar jamiyatida quldorlik ham keng tarqalgan edi. Ko'chmanchilar o'troq aholi yashaydigan yerlarga ham, o'zlarining ko'chmanchi qo'shinlariga ham bosqinlar uyushtirganlarida hunarmandchilik ashyolari va dehqonchilik-bog'dorchilik mahsulotlari bilan birga minglab asirlarni ham olib ketardilar. Bu asirlarni ular qul qilib yo o'zlarining

xo'jaliklarida ishlatardilar, yoki Sibiriyo bozorlari va Sirdaryo bo'yi shaharlarida sotar edilar. Qullarning mehnatidan asosan ko'chmanchi zodagonlarning xo'jaliklarida foydalanishardi.

Biz o'rgangan davrda ko'chmanchi o'zbeklar bilan O'rta Osiyoning o'troq aholisi o'rtaida siyosiy va iqtisodiy aloqalar rivojlangan edi. O'troq aholi hayotidan ham savdo muhim ahamiyatga ega bo'lgan. O'rta Osiyolik savdogarlar ko'chmanchilarni ipak va paxtadan to'qilgan matolar, kiyim, poyabzal, egar, qurol va uy xo'jaligiga mansub ashyolar bilan ta'minlashardi, ko'chmanchilar esa o'troq aholiga otlar, quy, chorvachilik mahsulotlari va qurollarni yetkazib berishardi. Aytib o'tishimiz kerakki, ko'chmanchilarda savdo asosan ayirboshlashga asoslangan edi.

Ko'chmanchi o'zbeklar bilan temuriylarning XV asr davomida va XVI asr boshlarida Dashti qipchoq bilan Movarounnahr, ko'chmanchi o'zbeklar davlati bilan temuriylar davlati bilan temuriylar davlati o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning muhim jihatlaridan biri harbiy kurash bo'lgan. Ko'chmanchi o'zbeklar XV asrda ikki marotaba Xorazmni bosib oldilar, ammo ba'zi sharoitlar sababli ular Xorazmni tashlab ketishga majbur bo'lganlar. ammo XV arning 40-yillarida o'zbeklar temuriylardan Xorazmning janubi-g'arbiy qismini tortib oldilar va u yerda uzoq muddatga o'rnashib qoldilar. 1505 yili bo'lsa, viloyatni butunlay bosib olishdi.

Ko'chmanchi o'zbek zodagonlari temuriylarning o'zaro kurashlariga faol aralashib turganlar. Ular 1451 yili Samanqand taxtiga sulton Abusa'idni o'tqazishdi, 1460-61 yili esa unga qarshi Ulug'bekning nabirasi Muhammad Jo'qiy tomonida turib jang qilganlar. O'zbek xonlaiga Sulton Husayn, Minuchehr mirzo, Alouddavla kabi temuriylar yordam so'rab murojaat qilganlar.

XV asrning 80-yillarida ko'chmanchi o'zbeklarning bir qismi hozirgi Qozog'istonning yerlarida qolgach, turk-mo'g'ul qabila va urug'lari bilan

birlashib, qozoq xonligiga asos soldi, boshqa bir qismi XV asrning oxiri, XVI asrning boshlarida SHayboniyxon rahbarligida Movarounnahr, Xorazmga bostirib keldi va temuriylar hukmdorligiga barham berdilar.

SHayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar qisqa muddat ichida Movarounnahr va Xorazm ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Ammo SHayboniyxon o'ldirilgandan keyin ko'p vaqt o'tmay, mamlaktda o'zaro kurashlar, nizolar avj oldi, natijada Xuroson safaviylar qo'liga o'tdi, Movarounnahr shayboniylarning mayda mulklariga bo'linib ketdi. Abdullaxon II uzoq davom etgan va ko'p qon to'kilgan kurashlardan so'ng mamlakatni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi, ammo uning vafotidan so'ng mamlakat yana bo'linib ketdi. SHu paytdan boshlab Movarounnahr ikkita mutaql xonlikka – katta, ta'siri kuchli bo'lgan mang'it qabilasi boshliqlari hokimiyat tepasiga kelgan Buxoro xonligi va qo'ng'irotlar rahbarligidagi Xiva xonliklariga bo'lindi. XVIII asr boshlarida Farg'onada, markazi Qo'qonda bo'lgan uchinchi bir mustaqil xonlik tashkil bo'ldi, bu xonlik tepasida ming qabilasining boshliqlari turar edilar. Ko'rinib turibdiki, ko'chmanchi o'zbeklar XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyoning siyosiy hayotida ham muhim o'rin tutganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2012 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: "O'zbekiston", 2011 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, T.: "O'zbekiston", 1996 y.

4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild, T.: "O'zbekiston", 1996 y.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild, T.: "O'zbekiston", 1996 y.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild, T.: "O'zbekiston", 1996 y.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild, T.: "O'zbekiston", 1997 y.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. 6-jild, T.: "O'zbekiston", 1997 y.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, T.: "O'zbekiston", 1999 y.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild, T.: "O'zbekiston", 2000 y.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild, T.: "O'zbekiston", 2001 y.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild, T.: "O'zbekiston", 2002 y.
13. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild, T.: "O'zbekiston", 2003 y.
14. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild, T.: "O'zbekiston", 2004 y.
15. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild, T.: "O'zbekiston", 2005 y.
16. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-jild, T.: "O'zbekiston", 2006 y.
17. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild, T.: "O'zbekiston", 2007 y.

- 18.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'li. 16-jild, T.: "O'zbekiston", 2008 y.
- 19.Karimov I.A. Vatanimiz bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild, T.: "O'zbekiston", 2009 y.
- 20.Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiyo topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. 18-jild, T.: "O'zbekiston", 2010 y.
- 21.Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild, T.: "O'zbekiston", 2011 y.
- 22.Karimov I.A. Bizning yo'limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. 20-jild, T.: "O'zbekiston", 2012 y.
- 23.Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. 21-jild, T.: "O'zbekiston", 2013 y.
- 24.Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar – biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. 22-jild, T.: "O'zbekiston", 2014 y.
- 25.Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. T., 2010 y.
- 26.Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. T., "Adolat", 2004 y., 520-bet.
- 27.Saidov A. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va saylov tizimi. T., 2005 y.
- 28.Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan. T., "O'qituvchi", 2011 y.
- 29.Jo'rayev N. Tafakkurdagi evrilit. T., "SHarq", 2001 y.
- 30.Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar. T., "SHarq", 1998 y.
- 31.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1991-2010yy.) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar. T., "O'zbekiston", 2011 y.
- 32.Azizxo'jayev A. CHin o'zbek ishi. T., "O'zbekiston", 2011 y.

33. Aytmatov CH. Qoyada qolgan ko'z yoshlar. T., 2004 y.
34. "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli" (Xalqaro simpozium). 2011 yil 25 noyabr Toshkentda o'tgan.
35. "YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiyo ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" (Xalqaro konferensiya, 2012 yil 16-fevral).
36. "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" (xalqaro konferensiya, 2012 yil 14-sentyabr).
37. "Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hayotiing sifatini yaxshilash omili" (Xalqaro konferensiya, 2013 yil 16-aprel).
38. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashning tarixi. T., "SHarq", 2001 y.
39. Sitara Sayyod. Sud-huquq islohotlarini amalga oshirishda BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorligi. T., 2009 y.
40. Statistika to'plam. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. T., "O'zbekiston", NMIU, 2011 y.
41. akad.YA.G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixidan. T., "Fan", 1960 y.
42. akad.S.P.Tolstov. Po sledam drevnexorezmskoy sivilizatsii. M., 1962 g.
43. akad.G.A.Pugachenkova, E.Rtveladze. Severnaya Baktriya – Toxariston. T., 1990 g.
44. akad.A.Askarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., "Universitet", 2007 y.
45. akad.B.Axmedov. O'zbek ulusi. T., "Nur", 1992 y.
46. akad. K.SHoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., 2001 y.
47. prof.L.Gumilev. Drevnye tyurki. M., 1993 g.
48. akad.V.SHishkin. Varaxsha. T., «Fan», 1996 g.

- 49.akad.Abulg'oziy. SHajarai turk. T., 1992 y.
- 50.akad. K.SHoniyozov. Qang' davlati va qanglilar. T., "Fan", 1990 y.
- 51.akad.A.YAkubovskiy. K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda. T., 1941 g.
- 52.akad.YU.Buryakov. Genezis i etapy razvitiya gorodskoy kultury Tashkentskogo oazisa. T., 1982 g.
- 53.M.Vaxobov. O'zbek sotsialistik millatining shakllanishi. T., 1961 y.
- 54.Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. T., 1994 y.
- 55.Nizomulmulk. Siyosatnoma. (Siyar ul muluk), T., "Adolat", 1997 y.
- 56.Samandar Termiziy. Dastur ul muluk. T., "G'afur G'ulom", 1997 y.
- 57.Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., "SHarq", 2000 y.
- 58.Bayoniy. SHajarai xorazmshohiy. T., "CHo'lpon", 1994 y.
- 59.Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. T., "CHo'lpon", 1994 y.
- 60.Temur tuzuklari. T., "SHarq", 2005 y.